

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA  
MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI  
QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI  
IJTIMOIY FANLAR FAKULTETI  
MILLIY G‘OYA VA MA‘NAVIYAT ASOSLARI KAFEDRASI**

**“Himoyaga tavsiya etilsin”**

Ijtimoiy fanlar fakulteti dekani

\_\_\_\_\_prof. B. Eshov.

“ \_\_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_2019yil

**UZOQOV BUNYOD G‘AYRAT O‘G‘LINING**

“5111600 - Milliy g‘oya, ma‘naviyat asoslari va huquq ta‘limi”  
yo‘nalishi bo‘yicha bakalavr darajasini olish uchun  
«Shaxs ma‘naviy kamolotida estetik did va ehtiyojning o‘rni»  
mavzusida yozgan

**BITIRUV MALAKAVIY  
ISHI**

Talaba \_\_\_\_\_ **B.Uzoqov**

Ilmiy rahbar: \_\_\_\_\_ dots. **F.Qanoatova**

**“Himoyaga tavsiya etildi”**

Milliy g‘oya va ma‘naviyat  
asoslari kafedrası mudiri

\_\_\_\_\_dots. F.Qanoatova.

“ \_\_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_2019yil

**Qarshi - 2019**

## MUNDARIJA

### KIRISH

#### I bob: INSON MA'NAVIY KAMOLOTI RIVOJLANISHIDA SHAXS ESTETIK DIDINING TA'SIRI.

1.1 SHaxs hayotida ma'naviy kamolot va uning asosiy jihatlari.....5

1.2 Estetik did tushunchasi va uning o'ziga xos xususiyati .....10

#### II bob: OMMAVIY MADANIYATNING SHAXS MA'NAVIYATIGA SALBIY TA'SIRI VA UNI BARTARAF ETISHNING AHAMIYATI.

2.1. Ommaviy madaniyat tushunchasining turlicha talqin qilinishi.....19

2.2 Shaxs ma'naviy qiyofasiga salbiy ta'sirlarni bartaraf etish yo'llari.....35

XULOSA .....64

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR .....67

## Kirish

O'zbekistonimiz demografik xususiyatiga ko'ra yoshlar mamlakati hisoblanadi. Hozirgi globallashtirilgan zamonda barcha yangilikka, o'zgarishlarga qarab intilmoqda. "Bizni hamisha o'ylantirib keladigan muhim masala – bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so'z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog'liq. Bugun zamon shiddat bilan o'zgaryapti. Bu o'zgarishlarni hammadan ham ko'proq his etadigan kim - yoshlar. Mayli, yoshlar o'z davrining talablari bilan uyg'un bo'lsin. Lekin ayni paytda o'zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug' zotlarning avlodimiz, degan da'vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o'zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz ? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan"<sup>1</sup>, deya ta'kidlaydi SH.Mirziyoyev.

Bu vazifani bajarishda butun jamoatchilik katta mas'uliyatni o'z zimmasiga olmog'i zarur. Eng avvalo tarbiyani shaxsda ma'naviyatni shakllantirishdan boshlash lozim. Chunki, ma'naviyat insondagi buyuk qudratdir, uni uyg'otish va harakatga keltirishga muvaffaq bo'linsa barcha ulug'vor rejalarni amalga oshirish uchun imkon vujudga keladi. Yoshlar ongida ma'naviy qudratni uyg'otib, uni bashariyat taraqqiyotiga xizmat qiluvchi muayyan o'zanlar sari yo'naltirishda estetikaning o'rnini beqiyosdir.

Ma'naviyat poydevori baquvvat bo'lmasa xalqi va vatani, o'z shaxsi uchun qanday xulosaga olib kelishi hammamizga ma'lum. Bu haqda Imom Fazzoliy o'z davrida bekorga aytmagan: "SHuni bilsinlarki, odamzodni azbaroyi o'yin uchun yaratmishlar, uning amali ulug'dir va uning uchun buyuk xatar bordir"<sup>2</sup>. Insonning voqelikka bo'lgan munosabati tabiat, jamiyat va ijtimoiy hayotning turlicha voqea va hodisalaridan ta'sirlanish jarayonida paydo bo'ladi va shakllanib borishida insonning estetik ongi shakllanib boradi. Estetik ong ob'ekt dunyoga nisbatan bo'lgan inson estetik munosabatining sub'ektiv tomonidir. U - ma'naviy-ruxiy voqea-xodisalar majmui bo'lib, ular ijtimoiy

---

<sup>1</sup>SH.Mirziyoyev. "Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, muqaddas dinimizning sofliqini asrash – davr talabi" -// Xalq so'zi, 2018 yil. 16 iyun

<sup>2</sup> qarang: Abu Homid G'azzoliy. Kimiyoi saodat. Ruh haqiqati.-T. "Adolat", 2005,24-bet

hayot zaminida vujudga keladigan estetik xis, estetik did, estetik qarashlari tizimini anglatadi. Shunday estetik qadriyatlar borki, ular muayyan zamon, ijtimoiy hayot, umummilliy, umuminsoniy madaniy daraja bilan shartlanadi. Insonning fikr - muloxazalari, xulq-atvori, xatti-harakatlari, moddiy va ma`naviy ijodkorligi orqali namoyon bo`ladi.

**Mavzuning dolzarbligi:** Ma`naviyat insondagi yaratuvchilik qudratidir, insonda ana shu qudratni shakllantirish va harakatga keltirishda shaxs estetik didi va ehtiyojlarining ta'sirini, unda bo`layotgan salbiy illatlarning oldini olish usul va vositalarni izlash, takomillashtirish vazifasi doimo o`z dolzarbligini yo`qotmaydi.

**Bitiruv malakaviy ishining maqsadi:** Estetik did ma'lum ma'naviy muhitda shakllanadi, shunday ekan, ushbu muhit qanchalik axloqiylikka, mehr-oqibat hamda go'zallik, nafosatga moyil bo'lsa, estetik did shunchalik oson va tez shakllanib, yuksalib borishi mumkinligini har tomonlama o`rganish lozim.

Bitiruv malakaviy ishining vazifalari quyidagilarni o`z ichiga oladi:

1. Ma`naviyat tushunchasining mohiyatini o`rganish
2. Estetik did tushunchasining mohiyatini o`rganish;
3. Estetik didning o'ziga xos xususiyati va ijtimoiy muhitdagi o`rnini ko`rsatish;
4. Estetik did va madaniyat shakllanishi bosqichlarini o`rganish;
5. Estetik did va ma`naviyat munosabatlarini aniqlash;
6. Estetik didga ommaviy madaniyatning salbiy ta'sirlarni ko`rsatish;
7. Shaxs manaviy kamolatiga salbiy ta'sirini oldini olish muammolarini ko`rsatish.

**Mavzuning o`rganilganlik darajasi:** Mamlakatimizda ushbu tanlangan mavzu yuzasidan yaxlit, kompleks tadqiqotlar olib borilmagan bo'lsada unga bevosita aloqador bo'lgan bir qator ishlar mavjud. Mavzuning u yoki bu bo`limlari taniqli olimlarimiz, jumladan E.Yusupov, S.Otamuratov, J.Ramatov, S.Xusanov, A.Erkayev, B.Ziyomhammadov E.Umarov,

R.Karimov, Abdulla Sher, Bahodir Husanov, Z.Umararov, va boshqalar tomonidan o`rganilgan <sup>1</sup>

**Ishning ilmiy yangiligi:** Mavzuda ma`naviyat insonning ruhiyati bilan bog`liqligi va uning mazmun mohiyatini o`rganilgan. Estetik did tushunchasining mohiyatini bir qator tariflar asosida bayon etilgan. Shuningdek, estetik didning o`ziga xos xususiyati va ijtimoiy muhitdagi o`rni, did va madaniyat shakllanishi bosqichlari, ma`naviyat bilan dialektik aloqadorligi, ommaviy madaniyatning estetik didga salbiy ta`siri va ularni oldini olish muammolari atroflicha yoritilgan.

**Bitiruv malakaviy ishning ob`ekti:** SHaxs ma`naviy kamolotida estetik did va ehtiyojning o`rnini o`rganish ishning ob`ekti vazifasini bajaradi.

**Bitiruv malakaviy ishning predmeti:** Estetik qadriyatlarning muayyan zamon, ijtimoiy hayot, umummilliy, umuminsoniy madaniy daraja, insonning fikr-muloxazalari, xulq-atvori, xatti-harakatlari, moddiy va ma`naviy ijodkorligi orqali namoyon bo`lishi va unga salbiy ta`sir etadigan omillarning mohiyatini o`rganish tashkil etadi.

**Bitiruv malakaviy ishning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati:** Ishning ilmiy yangiligi yangi adabiyotlar va matbuot materiallariga tayangan holda ilmiy metodologiya asosida muammo va yutuqlarini tahlil etishda ko`rinadi. Bugungi kunda shaxs estetikasi masalasi, didi va ehtiyoji muhim ahamiyatga ega ekanligi haqida mavzu kompleks tarzda, bitiruv malakaviy ish darajasida o`rganildi.

Shuningdek, BMI mavzusining amaliy ahamiyati unda keltirilgan ma`lumotlardan shu soha fanlarini o`qitishda va ilmiy seminarlarida foydalanish mumkin.

**Malakaviy ishning tuzulishi:** kirish, ikki bob, to`rt bo`lim, xulosa hamda adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

---

<sup>1</sup> E. Yusupov. Inson kamolotining ma`naviy asoslari. -T., Universitet,1998, 184 sah.; S. Otamuratov, J. Ramatov, S.Xusanov. Ma`naviyat asoslari (Ma`ruzalar matni). -T. 2000, 228 sah.; B. Ziyomhammadov, S. Ziyamammedova, S. Qodirova. Ma`naviyat asoslari. -T., O`zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2000, 192 sah.; Erkayev A. Ma`naviyatshunoslik.-T.;Ma`naviyat,2018yil A.Erkaev. Ma`naviyat-millat nishoni.-T., Ma`naviyat,1999, 240 sah.; A.Erkaev. Duxovnost – energiya nezavisimosti. -T., Ma`naviyat, 1998; E. Umarov, M. Abdullaev. Ma`naviyat asoslari. T., Cho`lpon nomidagi nashriyat-matbaa ijodiy uyi, 2006., Umarov E., R.Karimov va b. "Estetika asoslari" - T.; 2010y.207 b., Abdulla Sher, Bahodir Husanov. Estetika –T.; O`zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2010,Umararov Z. Estetika" Nafosatshunoslik - T.: O`qituvchi, 2008 va boshqalar

# **I BOB: INSON MA'NAVIY KAMOLOTI RIVOJLANISHIDA SHAXS ESTETIK DIDINING TA'SIRI**

## **1.1 SHaxs hayotida ma`naviy kamolot va uning asosiy jihatlari**

Ma`naviyat insonning ruhiyati bilan bog`liq. Inson ruhiyati, albatta, tashqi ta`sirlar natijasida o`zgarib turadi. Insonning iqtisodiy ahvoli, jamiyatda tutgan o`rni va mavqei uning ma`naviyatiga ta`sir qilmay qolmaydi. Ammo, baribir, ma`naviyat o`z mustaqil yo`nalishiga ega. Masalan, inson qanchalik boy, o`ziga to`q bo`lsa, shunchalik uning ma`naviy kamoloti yuqori yoki, aksincha, past bo`ladi, desak, har ikki hukmda ham yangilishib qolamiz. Alisher Navoiy, Xoja Ahrori Valiy, Maxdumi A`zam, Xoja Sa`id Jo`yboriy kabi allomalar ham ma`naviy barkamol, ham nihoyatda badavlat bo`lishgan<sup>1</sup>. SHu bilan birga, dunyo molidan yuz o`giran, umrini zohidlikda o`tkazgan buyuk allomalarimiz ham kam emas. Aksincha, nihoyatda ziyod mol-davlat sohibi bo`lgan holda ma`naviy kamolotdan uzoq kimsalar, yoki na dunyo molini, na ma`naviy kamolotni qo`lga kiritgan olmagan bechoralar ham hayotda uchrab turishini hamma biladi.

Ma`naviyat moddiy olamda mavjud, undan tashqarida emas. Ammo uning o`ziga xosligi shundaki, kelib chiqish manbasi ham, oldiga qo`ygan maqsadi ham bu foni dunyo bilan cheklanmaydi, boqiylik, abadiyat bilan tutashadi.

Ma`naviyat inson uchun moddiy ehtiyoj ham zarurat ham emas, lekin moddiy ehtiyojlarni ham, siyosiy munosabatlarni ham mo`tadil bir meyorda ushlab turadigan buyuk qudrat. Jamiyat hayotida ma`naviyatga e`tibor susaysa hamma sohada ham o`pirilishlar yuz berishi, hayotiy mezonlarga putur yetishi mumkin. Ma`naviyat, avvalo, insonning o`z mohiyati oldidagi mas`ulligidir.

O`zbekistonning birinchi Prezidenti I.A.Karimov ma`naviyatga shunday ta`rif bergan edi: «Ma`naviyat - insonni ruhan poklanish, qalban ulg`ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon – e`tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg`otadigan beqiyos kuch, uning barcha

---

<sup>1</sup> E.Umarov, R.Karimov va b. "Estetika asoslari"(Darslik) - T.; 2010 y.207 b.

qarashlarining mezonidir”<sup>1</sup> Bunday beqiyos botiniy qudrat egasi uchun hayotda hal qilib bo`lmaydigan muammo yo`q. SHu sababli yosh avlodni yuksak ma`naviyatli qilib tarbiyalashga doimiy ravishda va g`oyat jiddiy ahamiyat qaratmoq lozim.

Ma`naviyat ko`proq inson qalbiga, botiniy dunyosiga qaratilganligi bilan ajralib turadi. Shu ma`noda ma`naviyat inson qalbidagi ilohiy bir nur sanaladiki, bu ilohiy nur hech bir jonzotda yo`q.

Mustaqillikdan so`ng lug`atlarda, ilmiy asarlarda “ma`naviyat” ilmiy tushunchani chuqurroq o`rganishga bo`lgan qiziqish ayniqsa oshib ketdi.

Bir qator olimlarimiz anjumanlarda qilgan ma`ruzalarida “ma`naviyat – insondagi axloq, odob, bilim, ilm, iymon, ixlos va insoniyat kamoloti uchun ijobiy ta`sir qiluvchi tizim yoki ma`naviyat- insonning aqliy, axloqiy, ilmiy, amaliy, mafkuraviy qarashlar yig`indisi hisoblanib, diniy va dunyoviy qarashlarning aks etish darajasidir”, deb ta`rif berib kelmoqdalar. A.Erkayevning fikricha, “Ma`naviyat - insonning ijtimoiy - madaniy mavjudot sifatidagi mohiyatidir, ya`ni insonning mehr-muruvvat, adolat, to`g`rilik, sofdillik, vijdon, or-nomus, vatanparvarlik, go`zallikni sevish, zavqlanish, yovuzlikka nafrat, iroda, matonat va shu kabi ko`plab asl insoniy xislatlari va fazilatlarining uzviy birlik, mushtaraklik kasb etgan majmuidir”<sup>2</sup>.

M.Imomnazarov esa dastlab “Ma`naviyat inson qalbidagi ilohiy nur...”,<sup>2</sup>- deb yozgan bo`lsa, keyinchalik «Ma`naviyat – inson qalbida, ko`ngil ko`zgusida aks etgan haqiqat nuridir, deyilgan ta`rif darhaqiqat, so`fiyona ramziy ta`rifdir, zotan boshqacha ta`rif bu cheksiz mohiyatni cheklab qo`yadi”<sup>3</sup>, -deb yozadi.

E. Yusupov insonda mavjud bo`ladigan hamma xislatlar va fazilatlar emas, balki ijobiylarigina ma`naviyat bo`la olishini ko`rsatib: “Ma`naviyat –inson axloqi va odobi, bilimlari, istedodi, qobiliyati, amaliy malakalari, vijdoni, iymoni, e`tiqodi, dunyoqarashi, mafkuraviy qarashlarining bir – biri bilan uzviy

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. Yuksak ma`naviyat engilmas kuch. - T.: O`zbekiston. 2008 yil.

<sup>2</sup> A.Erkayev. Ma`naviyatshunoslik. 1- kitob. – T.: Ma`naviyat, 2018 yil. 43-bet

<sup>3</sup>G`Voboyev, V.Hamroyev, V.Alimasov Ma`naviyatshunoslik.- . T.: Yangi avlod. 2001.22-bet

bogʻlangan, jamiyat taraqqiyotiga ijobiy taʼsir etadigan mushtarak tizimdir”<sup>1</sup>, - deb taʼriflaydi.

Professor T. Mahmudov “ Maʼnaviyat – insonning maʼlum darajadagi jismoniy, aqliy, axloqiy va ruhiy balogʻati va dunyoqarashini ifodalovchi tushunchadir”<sup>2</sup>, - degan taʼrifni bersa, A.Choriyev maʼnaviyat tushunchasining madaniyat tushunchasidan qamrovi torligini taʼkidlab, “madaniyat” tushunchasi ijtimoiy ongning muhim shakli sifatida maʼnaviyatni ham, mafkurani ham, maʼrifatni ham oʻz ichiga qamrab oladi”<sup>3</sup>- deydi.

Albatta, yuqorida keltirilgan fikrlarning hammasida ham maʼnaviyatning koʻpgina qirralari oʻz ifodasini topgan va mualliflar oʻzlarining nuqtai-nazarlarini bildirganlar, ammo ularda inson salohiyatini oʻstirish, qalban ulgʻaytirish masalasi eʼtibordan chetda qolganligiga guvoh boʻlamiz. Maʼnaviyat tushunchasiga barcha faylasuflar va bir qator shu sohani vakillari oʻz munosabatlarini bildiradilar, taʼriflar shakllanib borib mukammal darajaga erishadi. Masalan, milliy davlatchiligimizning tamal toshini qoʻygan buyuk Amir Temur “Kuch – adolatdadir” degan gʻoyani ilgari surgan boʻlsa, I.A.Karimov uni takomillashtirib “Kuch – bilim va tafakkurda” degan gʻoyaga toʻxtaldi. Albatta bu sohadagi ishlar, islohotlar rivojlanishini talab qilar ekan, maʼnaviyat yoki “kuch” terminiga boʻlgan munosabat hech qachon toʻxtab qolmaydi. Shuning uchun hurmatli birinchi prezidentimiz yuqoridagi gʻoyalarni rivojlantirib, “Yuksak maʼnaviyat – yengilmas kuch” degan gʻoyani ilgari suran edilar.

Demak insoniyat yaralibdiki, doimo oʻzining kuch-qudratini namoyon qilib kelgan. Aynan kuch maʼnaviyatda ekanligini XXI asrda bir qator olimlar oʻz asarlarida taʼkidlab oʻtmoqdalar.

Insonning mustaqil shaxs darajasiga koʻtarilish jarayoni uning maʼnaviy qiyofasi bilan bevosita bogʻliq. Ushbu aloqadorlik mexanizmini har tomonlama tahlil qilishdan avval “insonning maʼnaviy qiyofasi” yoki maʼnaviyat

---

<sup>1</sup> Gʻ.Voboyev, V.Hamroyev, V.Alimasov Maʼnaviyatshunoslik.- . T.;. Yangi avlod. 2001.22-bet

<sup>2</sup> Oʻsha manba

<sup>3</sup> A.Choriyev. Inson falsafasi. Mustaqil shaxs. -T: Chinor ENK, 2002. 22-bet



tushunchalarining ma'nosi va mazmuni, uni yaxlit bir butunga birlashtirib turgan unsurlar, o'sha unsurlarning o'ziga xos xususiyatlari, xossalari haqida aniq tasavvurga ega bo'lishimiz lozim.

Ma'lumki, inson ongi va faoliyatida sodir bo'layotgan har qanday o'zgarishlarni o'rganish, o'sha jarayonni yoki holatni ifodalovchi, uni o'ziga xos tarzda aks ettiruvchi tushunchaning mohiyatini bilishdan boshlanadi. Ma'naviy qiyofa yoxud ma'naviyat ham inson borlig'ining o'ziga xos xususiyatlarini ifodalovchi real voqelik bo'lib, insonning ongi va faoliyatida kundalik xulq-atvorida, hatti-harakatida namoyon bo'ladi. Inson ongi va faoliyatining bunday murakkab fenomeni mohiyatini chuqurroq tahlil qilish uchun, eng avvalo, "insonning ma'naviy qiyofasi" tushunchasining ma'nosi va mazmunini aniqlab olish zarur. Buning uchun esa "insonning ma'naviy qiyofasi" bilan "ijtimoiy qiyofasi" tushunchalari o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik mexanizmini o'rganish lozim bo'ladi. Ushbu tushunchalarni birinchi bo'lib faylasuf olim A.Choriyev o'z ilmiy tadqiqotlarida ishlab chiqqan<sup>1</sup>.

Insonning ma'naviy qiyofasi, insonning ijtimoiy qiyofasiga qaraganda torroq, qamrovli tushuncha bo'lib, insonning ma'naviy qiyofasi ijtimoiy qiyofasining ma'lum bir qismini tashkil etadi. Ijtimoiy qiyofa esa, o'ziga insonning ma'naviy qiyofasini xarakterlovchi insoniy fazilatlar, xislatlar, xususiyatlar bilan birga uning tashkilotchilik, ishbilarmonlik, uddaburonlik qobiliyatlari, professional kasb-kor malakalari, ruhan poklanish darajasini ifodalovchi (kimdir kam gap, kimdir dilkash, oqko'ngil, kimdir ko'ngli qora va hokoza) xususiyatlarini o'zida mujassamlashtiradi. Lekin insonning ma'naviy qiyofasi uning ijtimoiy qiyofasining mag'zini tashkil qiladi. Xuddi shu mag'z inson amaliy faoliyatini boshqaruvchi mexanizm vazifasini bajaradi.

Insonning ma'naviy qiyofasi va "ma'naviyat" tushunchalari o'rtasidagi bevosita aloqadorlikni aniqlash lozim. Ular o'xshash tushunchalar bo'lib, ma'naviyat tushunchasi ko'proq umumiylikda o'z ifodasini topsa, insonning ma'naviy qiyofasida xususiylik, faqat inson ma'naviyatiga xos bo'lgan insoniy

---

<sup>1</sup> Qarang; A.Choriyev. Inson falsafasi. Mustaqil shaxs. -T: Chinor ENK, 2002 . 24-bet

xususiyatlar o'z ifodasini har bir sinf va qatlamlar, shaxs va oilada o'z aksini topadi. Shuning uchun yurtboshimiz aytganlaridek, ma'naviyat insonni ruhan poklaydi, qalban ulg'aytiradi va uning barcha (falsafiy, huquqiy, diniy, ilmiy, axloqiy, badiiy) qarashlarining mezonidir.

Ma'naviy qiyofa - ijtimoiy ongning muhim elementi bo'lib, inson xulq-atvorida, kundalik amaliy faoliyatida yaqqol namoyon bo'ladi. Ijtimoiy borliqning ifodasi bo'lgan ijtimoiy ong, murakkab strukturadan iborat bo'lib, o'zida bir nechta turli tuman unsurlarni birlashtirishi bilan birga, axloqiy idealni ham mujassamlashtiradi. Axloqiy ideal nafaqat o'zida insonning yuksak ma'naviy-ruhiy holatini anglatuvchi tushuncha, balki u ijtimoiy hayot haqidagi tasavvur, e'tiqod, huquqiy qarashlar, insonning insonga, insonning tabiatga, insonning jamiyatga bo'lgan munosabati hamdir. O'z navbatida, xuddi shu elementlar yagona, yaxlit tizim hosil qilib, insonning ma'naviy qiyofasida chuqur iz qoldiradi.

Shunday qilib, insonning ma'naviy qiyofasiga quyidagicha ta'rif berish mumkin. Ma'naviy qiyofa insonning insoniyligi, uning qalbi va vijdonining uyg'oqligini anglatuvchi ijobiy, insoniy fazilatlar, xislatlar yig'indisi bo'lib, insonning insonga, insonning tabiatga, insonning jamiyatga, insonning - o'zi yashayotgan ijtimoiy tuzumga, o'sha jamiyatda mavjud bo'lgan qonun, huquq, axloq normalariga, milliy g'oya va mafkura tamoyillariga bo'lgan munosabatlarining namoyon bo'lishidir. Shuningdek, ma'naviy qiyofa insonning o'z Vatani, xalqi, millati, jamoasi, oilasi, qavm-qarindoshlari olididagi mas'uliyatida, kundalik amaliy faoliyatida mujassam bo'ladi.

Demak, ma'naviyat insonning insoniylik mohiyatini belgilovchi o'zak tomiri, insonni mustaqil shaxs sifatida qiyofalanishining bosh manbai. Shaxs ma'naviyatini sun'iy ravishda, qandaydir o'ylab topilgan aqidalarga, dogmalarga tayanib, yuzaga keltirib ham, keskin o'zgartirib ham bo'lmaydi. Chunki ma'naviyat tushunchasining mazmuni bir kunda, bir yilda, hatto bir asrda shakllanadigan narsa emas, u har bir xalqning juda uzoq tarixi qa'ridan oziq olib, teranlik kasb etib keladi.

## 1.2 Estetik did tushunchasi, uning o'ziga xos xususiyati

Voqelikka estetik munosabat estetik ongni vujudga keltiradi. Lekin u voqelikni inson sezgi organlariga ta'sir etishi natijasida paydo bo'ladigan passiv oqibat bo'lmasdan, voqelikka aks ta'sir etib uni o'zgartirib yuborishdek faol kuchga ham egadir. Estetik faoliyatning oliy shakli bo'lgan san'at insonning voqelikka bo'lgan hissiy munosabatlarining hamda bu voqelikni go'zallik qonuniyatlari asosida idrok etishning eng muhim shakli hisoblanadi. San'atda insonning voqelikka bo'lgan estetik munosabati to'la va har tomonlama, keng ko'lamda o'z ifodasini topadi. Lekin insonning voqelikka bo'lgan estetik munosabati faqat san'atdagina namoyon bo'lib qolmasdan, balki tabiat, jamiyat va ijtimoiy hayotning turlicha voqea va hodisalaridan estetik ta'sirlanish jarayonida paydo bo'ladi va shakllanib boradi.

Estetika voqelikni inson tomonidan go'zallik qonuniyatlari asosida estetik idrok etish va o'zgartirish haqidagi fandır. Lekin voqelikni inson tomonidan estetik idrok etilishida san'at o'ziga xos alohida ahamiyat kasb etadi. Estetik xususiyat bizning voqelikka bo'lgan munosabatda mavjud, desak xatoga yo'l qo'yan bo'lamiz. Chunki biror narsa biz uchun go'zal yoki xunuk ko'ringani uchun go'zal yoki xunuk bo'lmasdan, aslida o'zi go'zal yoki xunuk bo'lishi mumkin. Agarda bordi-yu, hamma gap bizning munosabatimizga bog'liq bo'lsa, unda biz istagancha u narsani go'zal, bu narsani xunuk deb aytaverishimiz mumkin. Bu nazariya tarafdorlari estetik xususiyatlarning nisbiyligiga asoslanadilar. Masalan, yuz yil oldin go'zal deb atalgan biror narsa hozir xunuk ko'rinishi mumkin yoki aksincha, hozirgi go'zallik namunalari bir necha yillardan so'ng xunuk ko'rinishi mumkin. Ammo bu go'zallikka xos xususiyatni o'zimiz yaratamiz, degan ma'noni anglatmaydi.

Haqiqatan ham, hamma gap borliqda, voqelikning o'zida. Estetik xususiyat voqelikning tub mag'zida, mohiyatida mavjud bo'ladi. Biz shu xususiyatlarni kashf qilamiz, ulardan oziqlanamiz. Biroq, bu ong, munosabatning o'rni juda sust, degan emas. Bizning voqelikka bo'lgan munosabatimiz voqelikning mohiyatiga mos bo'lib tushgandagina haqiqiy, real go'zal yoki xunuk ekanligini

seza olamiz. Bordi-yu, bizning munosabatimiz real asosdan mahrum bo'lsa, unda voqelikdagi estetik xususiyatlarining tub mohiyatini ochib bera olmaymiz.

Go'zallik bilan yaxshilik bamisoli egizak, doim bir-birini taqozo qilgan, bir-biridan kelib chiqqan. Qadimgi yunonlarda bu ikki tushuncha bir butunning ikki tomoni sifatida qaralgan. Hozirgi paytda ham etika bilan estetikaning birligi kishilar hayoti uchun muhim ahamiyat kasb etmoqda. Chin insoniy axloq normalarini rivojlantirish chin estetik didni shakllantirishni ham talab etadi.

**Estetik did:** Estetik ongning muhim tarkibiy qismlardan biri bo'lib, his-tuyg'u va tafakkur birligi, inson o'zligini ifodalovchi bahodir. Bir vaqtning o'zida ham bizning bahomiz, ham bizga berilgan baho bo'lib, estetika fani tadqiqot doirasining eng murakkab va qiziqarli muammolaridan hisoblanadi<sup>1</sup>.

Estetik didga ega bo'lgan inson atrof-muhitni go'zallik va xunuklik, ulug'vorlik va tubanlik, fojaviylik va kulgililik kabi mezoniy tushunchalari orqali ko'zdan kechiradi<sup>1</sup>. Yuksak estetik didga ega bo'lishi o'zinigina emas, atrofdagilarga ijobiy ta'sir ko'rsatadi... Bu qobiliyat tabiiy-tug'malikka borib taqalsa-da, ammo o'zini asosan tarbiya, ijtimoiy munosabatlar orqali ro'yobga chiqaradi. Estetik did ham aqliy (fahm), ham axloqiy (farosat), ham hissiy tarbiya uyg'unlashgan umumiylikdan iboratdir.

Estetik did - insonning ko'p asrlik mehnat faoliyati natijasida shakllanadi va individual va ijtimoiy xarakter kasb etadi. Estetik did insonning yurish-turishida, fikr yuritishida, xarakterida, u yuzaga keltirgan moddiy va ma'naviy boyliklar, badiiy ijodiyot mahsullarida va atrof- muhitga estetik munosabatlarida yuzaga keladi, shakllanib boradi<sup>2</sup>.

Did estetik anglashning eng muhim unsuridir. Shu nuqtai nazardan estetik did tarbiyasi inson kamolotida muhim o'rin tutadi. Did shunchaki baho emas, narsa-hodisa estetik xususiyatlarini chuqur idrok etish orqali yuzaga keladigan xulosadir. Ammo did yagona, mutlaq estetik hodisa emas, u muayyan nisbiylik

---

<sup>1</sup> E.Umarov, R.Karimov va b. "Estetika asoslari" - T.; 2010 y.18-b.

<sup>2</sup> R.Karimov va boshqalar. Estetika asoslari. - T.: Cho'lpon,2006 29-bet

tabiatiga ega. Estetik did har kimda har xil bo‘lib, unda sub’yektiv mushohada kuchli. Shuning uchun ingliz faylasuflaridan biri Devid Yum did haqida bahslashmaydilar, ya’ni har kimning didi har xil degan fikrni ilgari surgan. Ammo shunday estetik qadriyatlar borki, ular muayyan zamon, ijtimoiy hayot, umummilliy, umuminsoniy madaniy daraja bilan shartlanadi. Ular idrok etilganida bahslashish mumkin emas. Masalan buyuk musavvirlar Botichellining “Veneraning tug‘ilishi”, Rafaelning “Konestabil madonnasi”, Albrext Dyurerning “Madonna”si yuz minglab yoki millionlab shaxslar va qator zamonlar tan olgan bu kabi qadriyatlarni “bu menga yoqmaydi”, deyish nojoizdir. Nemis faylasufi Kant ”Did haqida bahslashish ham mumkin va aksincha bahslashmaslik ham mumkin” degan antinomiyan<sup>1</sup> o‘rtaga tashlaydi. Darhaqiqat shoir aytganidek “Kimgadir yoqar lola, kim atirgul shaydosi, men uchun rayhon a’lo”.

Bu uch xil did o‘ziga xos sub’yektiv kechinmalarga asoslansa-da, ularning umumiy ob’yektiv ildizlari bor, ular gullardagi go‘zallikni turli xil shaklda ko‘radilar va bu holat tabiiy. Shu sababli har uch did ham hurmatga, e’tiborga loyiq. Shunday ekan, didning turli darajasi haqida fikr yuritish mumkin, bu odamlarning mavqei, saviyasi, madaniylik toifasi bilan bog‘liq. Inson did bilan kiyinishi, uyi, zamonaviy jihozlaryu jahon adabiyotining nodir namunlari bilan to‘la bo‘lgani uchungina estetik didi yuksak deb baho berib bo‘lmaydi. Ba’zi kishilar borki, nafosatni zavqlanish uchun emas, balki o‘zining boshqalardan madaniyatligini, o‘qimishligini ko‘rsatish uchun bir vosita deb biladi. Shunday ekan, ularning mohiyatini anglab yetishi, san’at asarlarini o‘qib baholay olishi, haqiqiy san’at asari qadrini bilgani uchun yuksak did sohibi deyish to‘g‘riroq bo‘ladi. To‘g‘ri, badiiy did estetik didga nisbatan xususiy, tor qamrovli, lekin shuning barobarida estetik didning asosini tashkil etishini nazarda tutganda insonning san’at asarlarini tahlil qila olish va to‘g‘ri baho berishi muhim ahamiyat kasb etadi.

---

<sup>1</sup> E.Umarov, R.Karimov va b. “Estetika asoslari” - T.; 2010 y.22-b.

Estetik did masalasi shaxs, jamiyat va millat madaniyati uchun katta ahamiyatga ega. Negaki jamiyatda yuksak didli kishilar qancha ko'p bo'lsa uning madaniyat darajasi yuksaladi, jamiyat farovonlashadi. Alohida insonning estetik didi shu jamiyat madaniyati darajasida namoyon bo'ladi. Shu sababli estetik did tarbiyasiga doim e'tibor qaratilgan. Chunki faqat yuksak estetik did egasigina haqiqiy erkin fikrlash salohiyatiga, dunyoni go'zallik prizmasi orqali ko'ra bilish qobiliyatiga ega bo'la oladi.

Estetik did tug'ma bo'lishi mumkin. Endi dunyoga kelgan, hali ijtimoiylashmagan go'dak beshikda yotar ekan, beshikka osig'liq rangli o'yinchoqdan zavqlanishi, g'adir-budir, shaklan qo'pol emas, qo'lga mayin, yumshoq, silliq urinadigan narsalarni xush ko'rishi, ularni siypalab zavqlanishi, alla eshitib orom olishi buni tasdiqlaydi. Ammo ta'lim-tarbiya jarayoni uning shakllanishi va takomillashuvida muhim o'rin tutadi. Ayniqsa oila estetik tarbiyaning ilk maskanidir. Bola estetik didining shakllanishida ota-onaning alohida o'rni bor. Masalan, qo'g'irchoq o'ynayotgan qizaloqni olaylik. Kichik-kichik mato parchalaridan qo'g'irchog'iga turli-tuman kiyimlar tikadi, mustaqil ranglar tanlaydi, alla va ertaklar aytadi. U onasiga taqlid qiladi, onasidan o'rgangan muomala va hunarlarni qo'g'irchog'iga qiladi, onasidan ibrat oladi. Onasining tufilisini kiyib, sumkasini ko'tarib, ko'zguga qarayotan qizaloqning didi avvalo onasining ta'sirida shakllanib boradi.

Demak bolaga faqat nasihat qilish emas, avvalo o'z xatti-harakati, yurish-turishi bilan ibrat bo'lish katta ahamiyatga ega. Bola uchun ota-ona estetik idealdir. Shuning uchun oilada ayniqsa ibrat katta ahamiyatga ega. Negaki, o'g'il otasiga, qiz onasiga taqlid qiladi. Ya'ni bola uchun otasi eng kuchli, eng aqlli, onasi esa eng go'zal va donodir. Bu hattoki bola ulg'ayganda ham namoyon bo'ladi. Aksariyat yigitlar umr yo'ldoshining onasiga o'xshashini istashlari, onalarini ibrat qilib ko'rsatishlari ham shundan dalolat beradi.

Estetik did ta'lim-tarbiya maskanlari bilan birga san'at vositasida takomillashib boradi. Ayniqsa san'at doim estetik tarbiyaning asosiy vositasi bo'lgan. Aynan badiiy adabiyot estetik did tarbiyasida o'ziga xos xususiyatlarga

egadir. Go‘dak ilk dunyoni tanigandanoq alla eshitadi, keyinchalik ertaklar olamiga oshno bo‘ladi. Uning badiiy adabiyotga qiziqishi oila ta‘sirida pog‘onama-pog‘ona yuksalib boraveradi. Kitobdagi ijobiy qahramonlarning xatti-harakati, kiyinishi, yurish-turishiga taqlid qiladi, ularga o‘xshashga harakat qiladi.

Bugun milliy mentalitetimizga to‘g‘ri kelmaydigan badiiy asarlar, kinofilmlar estetik didni takomillashtirishga qodirmi? Bu borada Prezident SH.Mirziyoyevning - "Bizni hamisha o‘ylantirib keladigan muhim masala – bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so‘z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog‘liq. Bugun zamon shiddat bilan o‘zgaryapti. Bu o‘zgarishlarni hammadan ham ko‘proq his etadigan kim - yoshlar. Mayli, yoshlar o‘z davrining talablari bilan uyg‘un bo‘lsin. Lekin ayni paytda o‘zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug‘ zotlarning avlodimiz, degan da‘vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o‘zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz ? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan"<sup>1</sup>, - degan so‘zlarini yana bir bor eslash maqsadga muvofiq.

Bugun yoshlarimizning estetik didga ega bo‘lishi, milliy san‘at, urf-odat va an‘analarni bilishi va milliy qadriyatlarimizni asarlarida aks ettirishi orqali ma‘nan yuksak, axloqan barkamol avlod b‘olib tarbiyalashda hamma o‘z hissalarini qo‘shishlari lozim.

Estetik didni shakllantirish jarayoni bevosita estetik tarbiya bilan bog‘liq. Ma‘lumki tarbiyaning vazifasi inson ongi, his-tuyg‘ulari va xatti-harakatlariga ta‘sir etish, shuningdek o‘z faoliyatini rivojlantirishga yordam berishdan iboratdir. Tarbiyaning boshqa shakllari kabi estetik tarbiya ham mana shu vazifani amalga oshirishda o‘zining muhim hissasini qo‘shadi. Estetik tarbiya jarayonida insonning estetik qarashlari va tushunchalari umumlashadi, estetik didi rivojlanadi va mukammallashadi. Ayniqsa, yoshlarning estetik didini shakllantirishga katta ta‘sir ko‘rsatadi. Estetik did esa o‘z navbatida insonning

---

<sup>1</sup>SH.Mirziyoev "Ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash – davr talabi" -// Xalq so‘zi, 2018 yil. 16 iyun

o'zligini ko'rsatishda namoyon bo'ladi. Chunki did insonning xoh moddiy, xoh ma'naviy faoliyati bo'lsin, u albatta namoyon bo'ladi.

Ma'lumki, yoshlarning ma'naviy qiyofasi, axloqiy va estetik fazilatlari kundalik hayotda, ularning mehnat va jamoat amaliyotlarida xilma-xil ijtimoiy-tarixiy omillar, vositalar ta'sirida shakllanib boradi. Sir emaski, yosh avlod ma'naviyatini shakllantirish, ularning dunyoqarashini kengaytirish hamda ijodiy qobiliyatini yuksaltirishga chorlaydi, lekin bunga albatta metinday mustahkam iroda kerak bo'ladi. Bu esa estetikadir, estetik tarbiya markazida insonning go'zallikka bo'lgan nafi turadi.

Estetik tarbiya sof ma'naviy hodisadir, degan noto'g'ri fikr ko'pincha ayrim yoshlarning estetik didning shakllanishiga befarq qarashiga olib keladi. YA'ni estetik didi shakllandimi, shakllanmadimi, estetik tarbiya toptimi yoki yo'qmi – baribir, asosiysi iqtisodiy masala, deyuvchilar ikki tomonlama yanglishadilar.

- birinchidan, ma'naviy tomon bilan iqtisodiy tomonni qarama-qarshi qo'yib, ma'naviy tomonni pastga urish orqali insoniy tuyg'ularni mensimaydilar,
- ikkinchidan estetik didni iqtisodiy ehtiyojdan butunday ajratib, iqtisodiy tomonning o'zini ham noto'g'ri xarakterlaydilar.

Estetik tarbiya ma'naviy tomonning eng muhim tarkibiy qismi sifatida estetik didni taqozo etishini inkor qilib bo'lmaydi.

Estetik didning pastligi inson hayotining barcha tomonlariga salbiy ta'sir qiladi. Masalan, ba'zi yosh oilalarda iqtisodiy tomon emas, balki ma'naviy omillar tufayli buzilib ketish hollari yo'q emas. Tuyg'ularning pastligi va qashshoqligi, go'zallikni seza bilmaslik, qadrlay bilmaslik kabi omillar er-xotin o'rtasidagi munosabatga putur yetkazmoqda. Yoki mehnat jamoasida o'z muomalasi, xatti-harakati kiyinishi tufayli hurmat qozonadi yoki hurmatsiz bo'lmoqda.



Estetik didning pastligi tufayli ayrim yoshlar Yevropa ommaviy madaniyatiga ko‘r - ko‘rona ergasha boshlaydi. Natijada bunday harakat bora-bora xunuk oqibatlariga olib kelishi mumkin.

Demak, estetik didning shakllanishi shunchaki arziyas narsa emas, balki inson hissiyotining, yashashining tub maqsadlaridan biridir<sup>1</sup>.

Estetik didning shakllanishi, albatta davrning xarakteri bilan ham bog‘liq. Har bir davlat o‘z talabiga mos holda estetik didning yangidan-yangi normalarini vujudga keltiradi. Bu yangi normalar esa o‘z navbatida barcha kishilar tomonidan o‘zlashtirilguncha ancha vaqt o‘tadi.

Bizning davrimiz ham shu jihatdan o‘z xususiyatiga ega. Davrimiz murakkab, shunga ko‘ra estetik tarbiyaning shakllanishi ham silliq, oson kechmaydi. Inson hayoti iqtisodiy omillar bilan shunchalik bog‘lanib qolganki, ma‘naviy omillar uchun imkoniyat bir qadar qisqarib ketayotgandik, inson shaxsi davrning keskin harakati qarshisida o‘z ma‘naviy xususiyatlarini ozmi-ko‘pmi mahrum bo‘layotganday tuyulmoqda. Inson qanchalik iqtisodiy omillar bilan band bo‘lmasin, ishlab chiqarish uni qamrab olmasin, baribir u istasa ma‘naviy omillarga ehtiyoj ham seza oladi, ma‘naviy boyish uchun vaqt ham topa oladi. Zero, inson ehtiyojlari cheksiz bo‘lganidek, uning shakllanish, o‘z qobiliyat va tafakkurini namoyon qilishi cheksizdir..

Estetik did ma‘lum ma‘naviy muhitda shakllanadi. Ma‘naviy muhit qanchalik axloqiylikka, mehr-oqibatga hamma go‘zallikka, nafosatga moyil bo‘lsa, estetik did shunchalik oson va tez shakllanib, yuksaladi. Aksincha ma‘naviy muhit inson qadr-qimmatiga qanchalik befarq bo‘lib, dag‘allik va qo‘pollikka moyil bo‘lsa, estetik did shunchalik qashshoq, rivojlanmagan bo‘ladi. Shunday qilib did shakllanishida jamiyatda qaror topgan ma‘naviy –axloqiy muhit katta rol o‘ynaydi. Ma‘naviy muhit yaxshi bo‘lsa. Ta‘lim va tarbiya, jumladan estetik didni tarbiyalash samarali kechadi.

Estetik kamolot ma‘naviy hayotning eng nozik, shu bilan birga murakkab ko‘rinishlaridan biri hisoblanadi. Inson shaxsiyatida estetik didning shakllanishi

---

<sup>1</sup>E. Umarov, R.Karimov va b. “Estetika asoslari” - T.; 2010 y.27-b.

asta-sekinlik bilan davom etadigan jarayon hisoblanadi. Estetik ko'nikmalar inson vujudiga singib, uning e'tiqodiga aylana borishi zarurdir. E'tiqodga aylanmagan ko'nikmalar beqaror bo'lib turadi, arzimas turtki bilan keskin o'zgarib ketadi. Agarda bu borada kerakli tadbiriy ishlar ko'rilmas ekan, estetik tarbiya sohasidagi barcha harakatlar yetarli natija bermasligi aniq. Estetik tarbiya sohasidagi qolaversa estetik didni shakllantirish sohasidagi eng qiyin ishlardan biri ham aslida, ana shundadir.

Yoshlarning o'zini tutishi strategiyalarini tahlil qilish hayotiy istiqbollarni, jamoatchilik hayotida va bir vaqtning o'zida o'zini ifoda etish uchun jiddiy munosabatlarni yaratuvchi va muayyan hayotiy makon shakllantiruvchi u yoki bu ijtimoiy tendensiyalarda ishtirok etishini o'rganishni nazarda tutadi. Bunga quyidagi asosiy ko'rsatkichlar kiradi:

- vatanparvarlik va Vatanga sodiqlik darajasi;
- ko'proq yoshlarni xavotirga soluvchi muammolar;
- o'zini ijtimoiy his etish;
- ustuvor hayotiy qadriyatlar va rejalar;
- ijtimoiy yetuklik darajasi .

Insonning voqelikni bilish doirasi uzluksiz kengayib borishi inson uchun hali noma'lum bo'lgan yangidan-yangi xususiyatlarni yuzaga chiqarib boradi. Voqelikka estetik munosabat doirasi kengaygan sari uning estetik faoliyati turlari ham shunchalik kengayib boraveradi. Natijada, insonning estetik faoliyati uning voqelikka nisbatan bo'lgan boshqa faoliyat turlari bilan zaruriy xolda bog'lanib, turli aloqalarni yuzaga keltirib boradi.

Fan va texnikaning to'xtovsiz rivojlanishi insonning voqelikka bo'lgan estetik munosabatlarini yangidan-yangi tomonlarini ochib bermoqda. Ayniqsa, keyingi yillarda hayotimizga dizayn yoki badiiy loyihalash kabi amaliy san'atning yangi turlarining keng miqyosda kirib kelishi va bularning utilitar (foydali) va estetik xususiyatlarini ilmiy asoslashda ba'zi texnikaviy fanlarga va ularning texnik vositalariga murojaat qilinmoqda. Boshqacha aytganda, estetik tarbiyaning yangi yo'nalishi paydo bo'ldi.

Kino, televideniye, radio, badiiy fotografiya, ommaviy bayramlar tashkil etish kabi yangi san'at turlarini paydo bo'lishi va ularning keng ko'lamda intensiv uzluksiz va tez sur'atlarda rivojlanishi ham fan va texnikaning ta'siri natijasidir. Shuni alohida qayd qilish kerakki, bu yangi san'at turlarini paydo bo'lishi va ularning texnikaviy xususiyatlari ba'zi an'anaviy san'at turlarining ijtimoiy xususiyatlarini tubdan o'zgartirib yuboradi. Sirk, teatr, arxitektura, haykaltaroshlik, rangtasvir va boshqa san'at turlari istemolchi tomoshabinlarning davrasi cheksiz kengayib ketdi. Keng xalq ommasi san'atga bevosita yaqinlashdi. Har bir xonadonga san'at kirib kelmoqda. Bu hodisa, o'z navbatida, foto va kinoapparat, televizorlar, kompyuter, magnitofon, video-magnitofon, kinokamera singari axborot vositalarining kun sayin takomillashishi badiiy fotografiya, musiqa va shunga o'xshagan san'at turlari uchun originallik (shedevr) muammosini ham keltirib chiqarmoqda. Chunki bu vositalar san'at asarlarini kerakli hajmda va miqdorda ko'paytirish mumkin. Ularning originaldan ko'paytirilgan nusxalari tomoshabin yoki eshituvchida bir xil estetik hissiyot uyg'otaveradi. Ularning texnik imkoniyatlari ijodkor bilan san'at muxlislari, ijrochi va tomoshabin o'rtasida mavjud bo'lgan oraliq-masofani deyarli yo'qotib yubormoqda.

Estetikaning tarbiyaviy ahamiyati shundaki, u axloqiy, siyosiy, mehnat, jismoniy, huquqiy va boshqa tarbiya turlari singari kishilarni go'zallik qonuniyatlariga odatlantirish, voqelikka go'zallik qonuniyatlari asosida munosabatda bo'lishni o'rgatishdir. Har bir kishida go'zallikni izchillik bilan idrok etish, uni kundalik turmushga keng ko'lamda tadbiiq etish qobiliyatlarini shakllantirish zarur. Go'zallikni to'g'ri idrok etish va unga sodiq bo'lish xususiyatiga ega bo'lgan shaxslargina ma'naviy boy va axloqiy pokiza bo'la olishi mumkin. Bunday shaxslar voqelikni estetik idrok etibgina qolmasdan, balki, uni faol va ijodiy ravishda estetik o'zgartirishi mumkin.

Demak, asosiy maqsad, estetik tarbiyani nihoyatda zarur ekanligini va yoshlarda estetik didni shakllantirish, ayniqsa, bizning davrimizda juda zarur ekanligini ta'kidlashdir.

## **II bob: OMMAVIY MADANIYATNING SHAXS MA'NAVIYATIGA SALBIY TA'SIRI VA UNI BARTARAF ETISHNING AHAMIYATI**

### **2.1.Ommaviy madaniyat tushunchasining turlicha talqin qilinishi.**

O'zbekistonda izchil amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg'un qabul qilish, ma'naviy va axloqiy fazilatlarga yangicha munosabatlar, an'analar shakllandi. Ayni paytda, jamiyatni demokratlashtirish jarayonida turli ma'naviy va axloqiy qadriyatlarga zid bo'lgan «ommaviy madaniyat» deb atalmish ma'naviy tahdidi ham kelib chiqdi. Bu tahdid avvalo jamiyatning ma'naviy-mafkuraviy omillariga xuruj qilmoqda.

Hozirgi davrga kelib «ommaviy madaniyat» rivojlangan mamlakatlar va ayniqsa, rivojlanish jarayonida bo'lgan milliy davlatchilikka jiddiy xavf sola boshladi. Turli olimlar «ommaviy madaniyat» tushunchasini turli talqin etsalarda, «ommaviy madaniyat» XX asrda insoniyat yaratgan klassik madaniyatga salbiy ta'sir etishi bilan namoyon bo'la boshladi. Olimlar «ommaviy madaniyat»ni alohida olingan ijtimoiy omil sifatida talqin etib, uning kelib chiqishi, o'ziga xos xususiyatlari va rivojlanish tamoyillarini tadqiq etmoqdalar.

Aksariyat madaniyatga doir nazariyotchilar va tarixchilar «ommaviy madaniyat»ni alohida olingan ijtimoiy fenomen sifatida kelib chiqishini uncha uzoq davr bilan bog'lamaydilar. Jumladan, YE.P. Smolskayaning ko'rsatishicha, ommaviy madaniyat bir necha ming yillik tarixga ega bo'lgan voqelik emas. Unga qarama-qarshi o'laroq AQSH sotsiologi D.Uayt fikricha, ommaviy madaniyatning dastlabki unsurlari sifatida minglab tomoshabinlarni o'ziga jalb etgan Rim gladiatorlari o'rtasidagi janglarni keltirish mumkin<sup>1</sup>. Mashhur olim A. Adorno fikricha esa, ommaviy madaniyatning hozirgi ko'rinishining ba'zi unsurlari XVII-XVIII asrlarda Angliyada kapitalizmning rivojlanishi bilan bog'liqdir. U shunga ishonadiki, o'sha davrda yozilgan romanlar (Defo, Richardson) asosan bozor uchun mo'ljallangan bo'lib, ular asosan tijorat

---

<sup>1</sup> A.Erkayev. «Ommaviy madaniyat» tanazzulga yetaklaydi. - 26-09-2015 <http://manaviyat-kuzgusi.uz>

maqsadlarini koʻzlagan edi. Albatta, oʻsha davrdagi bu kabi romanlar «zodagonlar» («elitar») madaniyatiga emas, balki «ommaviy» ehtiyojlardan kelib chiqib yozilgan edi. Lekin bu fikrga qarshi boʻlgan rossiyalik olimlar YE. P. Smolskaya va boshqalar bu kabi asarlarni ommaviy madaniyat uchun xos boʻlgan maʼlum qoliplari mavjud emasligini taʼkidlaydilar. Lekin aksariyat olimlar ommaviy madaniyatni kelib chiqishi va rivojlanishini XIX–XX asr boshlari bilan bogʻlaydilar. Rus olimi S. R. Ableyev va S. I. Kuzminskayalar fikricha, ommaviy madaniyat voqeligi anʼanaviy madaniyatning biron-bir turi bilan bogʻliq boʻlmasdan, umuman madaniyatni jiddiy ravishda sunʼiy oʻzgartirishdan kelib chiqqan. Boshqacha aytganda, ommaviy axborot va kommunikatsiya vositalari (radio, kino, televideniye, gazetalarning ulkan nusxalarda chiqishi, bezakli jurnallar va Internet) - industrial-tijorat tipidagi ishlab chiqarishni rivojlanishi, bir oʻlchov va meyorlarga solingan ruhiy boyliklarni taqsimlashni taomilga kirishi, madaniyatni nisbatan demokratlashtirish, roʻy berayotgan bir paytda ommaning bilim darajasi oʻsib borishi natijasida ommaviy madaniyat unsurlari rivojlandi.

Shuningdek, madaniyat nazariyasi tadqiqotchilarining baʼzilari XIX asrning 30-yillarida paydo boʻlgan va tezlik bilan ommani oʻziga jalb etgan detektiv janrini ommaviy madaniyatning ilk koʻrinishi bilan bogʻlamoqdalar. XIX asrning oxiridan boshlab haftalik ommaviy axborot vositalar turli asarlarni qismlarga boʻlib eʼlon qila boshladi va ular tez orada «yurakka yaqin pressa» yoki «shirin xayollar industriyasi» nomini ola boshlagan edi. XIX asrning oxirida AQShda ommaviy madaniyatning «komikslar» degan yangi shakli paydo boʻldi. Dastlab bu janr faqat bolalarga moʻljallangan boʻlib, keyinchalik katta yoshli kishilar unga qiziqqa boshladilar. Lekin, umuman olganda, ommaviy madaniyatning keng koʻlamli rivojlanish davridan boshlab total va ekspansiv xarakter kasb eta boshladi.

Ommaviy madaniyatni ham qandaydir mezonlar va belgilar bilan toʻliq tasvirlab berish qiyin masaladir. Buning asosiy sababi shundaki, «ommaviy madaniyat» ilmiy-falsafiy tushuncha sifatida oʻzida kamida yana uchta

tushunchani ifodalaydi. Birinchidan, «madaniyat» mahsulotning alohida xarakter kasb etgan tushunchasi hisoblanadi. Ikkinchidan, «ommaviylik» mahsulotning tarqalish darajasini anglatadi. Uchinchidan, «madaniyat» ma'naviy qadriyat hisoblanadi. Shuning uchun ham ommaviy madaniyatni eng ko'p tarqalgan tushunchasi qanday bo'lishini bilishga ehtiyoj seziladi.

Ba'zi tadqiqotchilar fikricha, «ommaviy madaniyat» – bu madaniyatning alohida olingan fenomeni, mustaqil birikma tuzilmasi bo'lib, ba'zan uning shakli bilan mazmuni o'rtasida uzilishlar ro'y berib turadi. Jumladan, A.B.Gofmanning fikricha «ommaviy madaniyat – jamiyatning inqirozli davridagi madaniyatning alohida holati bo'lib, uning mazmudor jihatlarining kamayish jarayoni rivojlanib boradi.» Shuning uchun ham ommaviy madaniyat ko'pincha rasmiy xarakter kasb etadi. Ommaviy madaniyat mavjud bo'la turib mohiyatli mazmunini, ba'zan esa an'anaviy axloqdan mahrum bo'lib boradi.

Boshqa bir talqinda esa ommaviy madaniyat hozirgi davr jamiyatida madaniy qadriyatlar ishlab chiqarishni xarakterlovchi voqelik sifatida ta'riflanadi. Unga binoan, ommaviy madaniyatni yashash joyi va mamlakatidan qat'i nazar barcha odamlar iste'mol qiladi. Ommaviy madaniyatning mavjudligi shundaki, u har kuni ommaviy tarzda yaratilib turiladi. Bu ommaviy kommunikatsiya auditoriyalari uchun qulay va qiyinchilik tug'dirmaydigan kundalik hayot madaniyatidir.

Bu sohada qiziqarli va sermahsul tadqiqot olib borayotgan olimlardan D. Bellning fikricha, ommaviy madaniyat – axborot jamiyatida xafa qilingan (arazlagan) ongning o'ziga xos aks-sadosi bo'lib, u maxsus belgilar tizimi yoki maxsus tillashuv bo'lib, uning vositasida axborot jamiyati a'zolari bir-birlarini anglash darajasini egallaydilar. Bunda ommaviy madaniyat yuksak darajada ixtisoslashgan postindustrial jamiyat bilan insonni o'zaro bog'lab turuvchi bo'g'in bo'lib, u insonni jamiyatga faqat «qisman» taalluqli ekanligiga barham beradi. Ana shu tor ixtisoslashgan faqat «ommaviy odam» darajasidagi «qisman» odamlar o'rtasidagi o'zaro kommunikatsiya, baxtga qarshi, ommaviy madaniyat vositasida amalga oshiriladi, ya'ni bu aloqadorlik ommaviy

madaniyatga xos bo'lgan, shuningdek hammaga qulay bo'lgan o'rtacha holdagi tilda ro'y beradi.

Hozirgi davrda G'arbda ommaviy madaniyat jamiyatning barcha jabhalariga kirib borgan bo'lib, u o'zining yagona semantik kengligini shakllantirgan.

Ko'rinib turibdiki, ommaviy madaniyat – bir xil tarkibli hodisa bo'lmasdan, u o'zining tuzilmasiga va turli darajalariga egadir. Hozirgi davr madaniyatshunoslikda, odatda, ommaviy madaniyatning uchta asosiy darajasini ajratib ko'rsatiladi:

- kuch-madaniyat (ya'ni, past ko'rsatkichli, hattoki vulgar madaniyat);
- mid-kultura (ya'ni, «o'rta hol» madaniyat);
- art-kultura (mas madaniyat, o'z badiiy mazmuni va estetik ifodasini ma'lum darajada yo'qotmagan, ba'zan yuksak darajada namoyon bo'ladigan madaniyat).

«Ommaviy madaniyat»ni alohida olingan sotsio-madaniy voqelik sifatida tahlil etish natijasida uning asosiy tasniflarini ko'rsatish mumkin. Ulardan quyidagilarni keltiramiz:

- gomogen auditoriyaga yo'nalganligi;
- his-tuyg'ularga, irratsionallikka, jamoaga, ongsizlikka tayanishi;
- eskeypizm;
- tezlik bilan jalb etish;
- tezda unutish;
- an'anaviylik va konservatizm;
- o'rta darajadagi til semiotik meyorlarini ishlatishi;
- qiziqarliligi.

Lekin ommaviy madaniyat mustaqil hodisa sifatida o'ta ziddiyatli tarzda baholanadi. Umuman, unga nisbatan nuqtai nazarlarni ikkiga bo'lish mumkin. Birinchi guruh vakillari (Adorno, Markuze va boshqalar) ommaviy madaniyat fenomeniga salbiy baho beradilar. Ularning fikricha, ommaviy madaniyat o'z iste'molchilarida haqiqiy voqelik to'g'risida passiv taasavvurlarni

shakllantiradi. Bu holat shu bilan dalillanadiki, ommaviy madaniyat asarlarida individ atrofidagi sotsiomadaniy kenglikda ro'y berayotgan hodisalarga nisbatan tayyor holdagi javoblar beriladi. Ikkinchi guruh vakillarining ommaviy madaniyat ta'siridan qadriyalar tizimi o'zgarib boradi: qiziqarli va ko'ngilochar bo'lish ustuvorlik xarakterini kasb etadi. Ommaviy madaniyatni ijtimoiy ongga nisbatan salbiy ta'siri sifatida olimlar uning hayotiy voqelikka mo'ljallangan obrazlarga asoslanmasdan, balki uning imijlar tizimiga, inson psixikasining ongsiz sohalariga ta'sir etishini ko'rsatadi. Bu guruhga jonli Etika ta'limoti mualliflari (Maxatma, Rerix kabilar izdoshlari) misol bo'la oladi. Jonli Etika paradigmasiga binoan, ommaviy madaniyat o'z mohiyatiga ko'ra soxta madaniyat bo'lib, u haqiqiy madaniyatdan farq qilib, o'zining aksariyat shakllarida gumanistik yo'nalishdagi ijtimoiy taraqqiyotga va insonning ma'naviy yuksalishiga xizmat qilmaydi. Xaqiqiy madaniyat esa insonni ma'naviy takomillashtiradi va uni saxovatli bo'lishga undaydi. Ommaviy madaniyat esa unga teskari vazifani bajaradi – u shaxsni intellektual, etikaviy, estetik degradatsiyasini rag'bantlantirib, ong va instinktlarning pastki jihatlarini tiriltirishga undaydi.

Shuningdek, «ommaviy madaniyat»ga nisbatan optimistik nuqtai nazarda bo'lgan tadqiqotchilar uning jamiyat hayotidagi quyidagi rollarini ko'rsatadilar:

- u o'z bo'sh vaqtini mahsuldor o'tkaza olishni uddalay olmaydigan ommani o'ziga jalb etadi;
- yuksak texnologik jamiyat a'zolari o'rtasidagi o'zaro hamkor xatti-harakatga muhit yaratishga intilib, o'ziga xos semiotik kenglik yaratadi;
- keng auditoriyaga an'anaviy (yuksak) madaniyat asarlari bilan tanishuviga imkoniyatlar yaratadi.

Hozirgi davrga kelib «ommaviy madaniyat» zamonaviy jamiyatlarda mustahkam joy oldi, uni yaqin istiqbolda yo'qolib ketishi ham kutilmayotir. Ko'rinib turibdiki, agar «ommaviy madaniyat» hozirgi ko'rinishida saqlashni davom etaversa, dunyo sivilizatsiyasi salohiyatiga putur yetishi turgan gap. «Ommaviy madaniyat»ning soxta qadriyatlari nafaqat qabul qilish qiyin bo'lgan



sifatlardir, balki ular shaxs va jamiyat uchun buzg'unchilik keltirishi mumkin. Shuning uchun ham madaniy hayotni yuksak g'oyalar, ijtimoiy ahamiyatli sifatlar va estetik takomilga yetgan obrazlar bilan to'ldirib borish joizdir. Bizningcha, bu pozitiv o'zgarishlarda jahon madaniyati va milliy ma'naviy madaniyat o'zining barcha shakl va mazmuni bilan muhim rol o'ynaydi.

Jamiyatimizda demokratik qadriyatlar izchil tarkib topib bormoqda. Bu jarayonda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg'un qabul qilish, ma'naviy va ahloqiy qoidalarga yangicha munosabat, mafkuraviy va ma'rifiy yangilanib borish kabi xususiyatlar shakllandi. Ayni paytda, demokratik turmush tarzining yuzaga kelishida ma'naviy va ahloqiy tubanlik illatlari ham paydo bo'lmoqda. Bunday holat ongli va maqsadli ravishda chetdan turib shakllantirilmoqda. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek, «haqiqat va xolislikdan yiroq bo'lgan, faqat g'arazli siyosiy manfaatlarni ko'zlaydigan bunday qarashlar hech kimga naf keltirmaydi va hech kimning obro'siga obro' qo'shmaydi, albatta». Shu ma'noda keyingi paytlarda jamiyatimizda «ommaviy madaniyat» atalmish ma'naviy va axloqiy tubanlik illati paydo bo'layotgani ko'pchilikka ayondir.

«Ommaviy madaniyat» tushunchasi biz uchun yangi tushuncha hisoblanadi. Biroq u g'arb olami uchun ancha tanishdir. O'zbekistonda bu muammoga jamoatchilik e'tiborini ilk bor I.A.Karimov qaratib, quyidagi fikrlarni bildirgan edi: «Biz yurtimizda yangi hayot asoslarini barpo etar ekanmiz, bir masalaga alohida e'tibor berishimiz lozim... Chetdan biz uchun mutlaqo yot bo'lgan, ma'naviy va axloqiy tubanlik illatlarini o'z ichiga olgan «ommaviy madaniyat yopirilib kirib kelishi mumkinligini unutmazlik kerak».

Rus faylasuf olimasi Y.A. Yevdokimova uzoq yillar davomida «ommaviy madaniyat» hodisasini chuqur o'rganib, uning tahdididan dahshatga tushgan edi. Chunki olimasi rus ayollari xarakteri va xulq-atvoriga nisbatan o'ta «ochiqlik» illatiga qarshi chora topish niyatida ommaviy madaniyatni tadqiq etgan edi. U bu haqda quyidagilarni yozgan edi: «Dahshat, bizning (rus xalqining demoqchi Sh.O.) madaniyatimiz yuksak ekan, Yevropa va AQShni o'z iskanjasiga olgan

«ommaviy madaniyat» esa qip-qizil sharmandalikdan boshqa narsa emas ekan». Shuningdek, olimi yana quyidagi fikrlarni bildiradi: «ommaviy madaniyat» bu bir guruh shaxslar tomonidan o‘ylab topilgan va ongli ravishda targ‘ib qilinadigan, biror millat madaniyatiga daxli bo‘lmagan g‘oyalar, odatlar va udumlar yig‘indisidan iboratdir». E’tibor bering, olimi «ommaviy madaniyat» atayin, o‘ylab topilgan hodisa, demoqda. Bundan shunday xulosa kelib chiqadi: «ommaviy madaniyat»ni o‘ylab chiqarishdan maqsad asosan milliy madaniyatlarni ichdan yemirish, didsiz, saviyasiz va o‘zligini unutgan yangi global avlodni shakllantirish.

Ba’zi ma’lumotlarga binoan, «ommaviy madaniyat» XIX asrning 50-yillarida beva ayollarning farzand ko‘rishi holatini tabiiy bir hodisa deb qaragan Yevropada boshlangan. Keyinchalik bu kabi holat AQShga ko‘chadi. XX asr o‘rtalariga kelib butun Yevropa va AQSH olamida «ommaviy madaniyat» tushunchasiga yana erkin muhabbat g‘oyasi qo‘shiladi. Unga ko‘ra yoshlar rasmiy nikohga qadar bir birlarini sinash uchun muayyan bir muddat er-xotindek yashab ko‘rishlari odatga ko‘ra boshlaydi. Agar ular bir-birlariga ma’qul kelsa, nikoh tuziladi yoki agar ular bir-biriga ma’qul bo‘lmasa hech narsa ko‘rmagandek ikki tomonga qarab ketishaveradi. Shu ma’noda «ommaviy madaniyat» aslida zinokorlikni oqlashdan boshlanib, 1989 yilga qadar Yevropa va AQShda turli axloqsizliklarni keltirib chiqardi. Keyinchalik esa jamoatchilik joylarida ham erkak va xotinlar bemalol, o‘zaro ochiqdan-ochiq bir-birlari bilan ishqiy uchrashuvlarda nikohsiz yashash, hattoki bu uchrashuvlar natijasida farzand ham ko‘rish, kelib chiqishi noma’lum musiqa va ashulalarni tinglash, behayo kinolarni esa tabiiy bir ravishda tomosha qilish odati paydo bo‘ldi. Keyinroq esa bir jinsli insonlarning o‘zaro nikohga kirish, ularning jamiyat an’analari va qoidalariga zid ravishda turli liboslar kiyishi kabilar paydo bo‘ldi.

1989 yildan boshlab, Yevropa va AQShdagi klassik madaniyatga sodiq sog‘lom fikrli kishilar «ommaviy madaniyat» illatiga keskin qarshi kurasha boshladi. Ammo vaqtdan boy berilganiga qaramasdan bu illatga qarshi kurashlar davom etmoqda.

Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov «ommaviy madaniyat» illatining mamlakatga kirib kelishidan ogoh qilar ekan, uning quyidagi ko‘rinishlarini ajratib ko‘rsatadilar: axloqiy buzuvchi va zo‘ravonlik, individualizm; egotsentrizm g‘oyalarini tarqatish, kerak bo‘lsa, shuning hisobidan boylik orttirish, boshqa xalqlarning necha ming yillik an‘ana va qadriyatlarini, turmush tarzining ma‘naviy negizlariga bepisandlik, ularni qo‘porishga qaratilgan xatarli tahdidlar odamni tashvishga solmay qo‘ymaydi. Agar «ommaviy madaniyat»ning bu kabi belgilarini chuqurroq tahlil etsak, quyidagi xulosalarga kelamiz:

1. *Axloqiy buzuvchi*. Bu eng tuban insoniy faoliyat bo‘lib, u asta-sekin «erkin muhabbat»dan «bir jinsli insonlar o‘rtasida nikoh tuzish»gacha bo‘lgan bosqichlarga ko‘tariladi. U yoshlarni ma‘naviy jihatdan aynitib, minglab yillardan buyon ardoqlanib kelayotgan muqaddas muhabbat an‘anasi o‘rniga zinokorlikni taqdim qiladi. Masalan, «bugungi kunda AQShning 30 foiz ayollari nikohga kirgunga qadar kamida ikki marta bola oldiradilar, shuningdek qizlar ham ana shunday ruhda tarbiya topmoqda. Aksariyat saylovchilar bu kabi turmush tarziga xalaqit beruvchi har qanday siyosatga qarshi ovoz berishadi».

Umuman, axloqiy buzuvchi dastavval oilaga daxl qiladi, keyin esa u nasl pokligiga putur yetkazadi. Vaholanki, bizda oila muqaddasligi, nasl pokligi masalasi muhim qadriyat hisoblanadi. Shu sababli ham kontrabanda yo‘li bilan yurtimizga kirib kelayotgan shahvoniy filmlar, turli pornografiyalar vositasida axloqiy buzuvchilikni targ‘ib qilish targ‘ib qilinmoqda. Shu ma‘noda bunday «mahsulotlar»ni turli «qora yo‘l»lar bilan olib kirishga intilayotgan shaxslarni faqat boylik orttirish qiziqtiradi, xolos.

2. *Zo‘ravonlik*. Bu illat mazmunini insonning inson ustidan o‘z hukmronligini o‘tkazish tashkil qiladi. Zo‘ravonlik shaxs huquqini paymol qilib, uning ongida hayvoniylik his-tuyg‘ularini va xususiyatlarini tarkib toptiradi. U bugungi kunda filmlar, kompyuterlar o‘yinlari va turli internetdagi qo‘llanmalar vositasida targ‘ib qilinmoqda. Bular orasida ayniqsa, dahshatli kinolar nafaqat

internet saytlarini, balki katta kino ekranlarni ham egallab borayotganligi tashvishli bir holdir.

An'anaviy va milliy madaniyat sohiblari - sog'lom fikrli olimlarning fikricha, zo'ravonlik g'oyalarini tarqatishdan maqsad ba'zi gegemon davlatlarning kuchsizroq davlatlarga nisbatan o'tkazadigan siyosati uchun muhit va asos yaratishdan iboratdir. Unga ko'ra, muayyan bir davlatga zo'ravonlikni targ'ib qiluvchi mahsulotlar izchillik bilan kiritib boriladi va tabiiyki, bu mahsulotlarni ishlab chiqargan davlat nomi reklamalar ko'rinishida targ'ib qilinadi. Natijada, bu mahsulotlarni, «iste'mol» qiluvchilar ongida bu davlatning qudrati shakllanadi, uni «kuchli davlat» sifatida tasavvur qilish ko'nikmasi shakllanadi. Demak, zo'ravonlik nafaqat shaxsni ma'naviy-axloqiy jihatdan aynitadi, balki qaysidir bir davlatning boshqa bir davlat ustidan ustivorligi uchun ham shart-sharoitlar hozirlaydi.

3. *Individualizm*. Bu g'oyaga ko'ra shaxs o'z manfaatlarini o'zgalar manfaatlaridan ustun qo'yadi. Shaxs individualchi bo'lishi kerak. Lekin, shaxs individualligining ham o'z meyorlari mavjuddir. Individualizm jamoaviylikning ziddiy ko'rinishi bo'lib, u shaxsni jamiyatdan ayro yashashga, qo'ni-qo'shnichilik, mahalla-ko'ychilik va jamoaviylikka qarshi ruhda voyaga yetkazadi. Bu illatga muhtalo bo'lgan kishi o'z manfaatlarini o'zgalarnikidan ustun qo'yadi, faqat o'zi uchun yashash odatini o'zlashtiradi. Individualizmni g'oyasi Yevropa madaniy an'analarini ko'z-ko'z qilib targ'ib etish bilan bu g'oyani joriy qilishga urinmoqda. Bu g'oyaga binoan inson faqat o'zi uchun yashashni afzal bilishi lozim.

4. *Egotsentrizm*. Bu g'oya insonning «men»ligini ustuvor qo'yishdan iboratdir. Unga ko'ra, inson har bir narsaga o'zining «men»lik nuqtai nazaridan qaraydi. Buning eng tashvishli jihati shundaki, unday odam o'zini doimo haq deb biladi, o'zgalarga nisbatan bepisand qarash, o'z xatti-harakatlarini mutlaqo to'g'ri deb bilish egotsentrizmning eng asosiy belgisidir.

Hozirgi davrda egotsentrizm illati aqidaparastlik, manmanlik va xudkushlik ko‘rinishlarida ham namoyon bo‘lmoqda. Shu sababli ham bu illat voyaga yetib kelayotgan yosh avlodni ijtimoiy jihatdan chalg‘itishi turgan gap.

Shuningdek, «ommaviy madaniyat»ning alomatlari jamiyatimizda ham namoyon bo‘la boshladi. Bunga misol tariqasida quyidagilarni keltirish mumkin:

Birinchidan, «ayrim yosh ijrochi va ijodiy guruhlarning jamoatchilik e‘tiborga taqdim etayotgan «asar»lari san‘atning hech qanday talab va mezonlariga javob bermaydi» .

Ikkinchidan, real haqiqatdan yiroq, odamga katta ma‘naviy oziq bermaydigan asarlar bilan teatrlar kassasini to‘ldirish holatlari ko‘proq ko‘zga tashlanmoqda.

Uchinchidan, «suratga olinayotgan aksariyat filmlarda kinochilarimizning bugungi kunning haqiqiy manzarasi, uning o‘tkir muammolarini chuqur his eta olmasligi, oddiy odamlar hayotidan uzoqlashib qolgani sezilib turadi».

To‘rtinchidan, afsuski, hozirgi vaqtda farzandlarimiz ko‘pincha xorijda ishlab chiqarilgan, bizning milliy tabiatimizdan uzoq bo‘lgan o‘yinchoq va qo‘g‘irchoqlarni o‘ynab ulg‘aymoqda. Ma‘lumki, hozirgi davrda mamlakatimizda yashayotgan har bir inson «ommaviy madaniyat» tahdidining ma‘no-mazmunini chuqur anglab olishi muhim vazifa bo‘lib qolmoqda.

So‘ngi paytlarda har xil g‘arazli kuchlarning ma‘naviyatimizga zid bo‘lgan va “ommaviy madaniyat” niqobi ostida xatarli illatlar bilan yo‘g‘rilgan g‘oyalarni yoshlarimiz ongiga singdirishga urinishlari kuchaymoqda. Bunday jirkanch “madaniyat” ta‘siriga duchor bo‘lgan o‘smir loqayd, yengil-yelpi hayotga oshno, yurt ravnaqi va xalq tinchligiga befarq kimsa bo‘lib voyaga yetadi. Shuningdek, “olomoncha madaniyat” jamiyatda buzg‘unchilik va zo‘ravonlikni targ‘ib etish hamda bolalarga go‘yo istagan ishini qilish- “erkinlik berish” kabi bema‘ni odatlarni yoyish bilan ularni manqurtga aylantirib, ma‘naviy hayotni og‘ir inqirozga duchor qiladi.

Bugun mafkuraviy kurashlar, ma‘naviy ziddiyatlar va zo‘ravon g‘oyalarning turli “o‘yinlari avj oldi. Xalqimiz bunday sharoitda har

qachongidan ham hushyor va ogoh bo'lishi, do'stu dushmani ajratishi, g'animlar fitnasiga uchmasligi, yovuz kuchlar qo'lida qo'g'irchoq bo'lmasligi zarur. Chunki har bir fasod ish ortida razil maqsadlar, manfaatdor kimsalar turganini bir lahza ham unutishga haqqimiz yo'q. Jahonda kechayotgan murakkab jarayonlar yoshlar tarbiyasiga yanada katta e'tibor berishni talab etmoqda. "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida ta'kidlanganidek, "Agarki biz bunday xatarlarga qarshi o'z vaqtida qat'iyat va izchillik bilan kurash olib bormasak, turli zararli oqimlar bizning yurtimizga ham shiddat bilan yopirilib kirishi, yoshlarimizni o'z girdobiga tortib ketishni, oqibatda, ularning ota-ona, el-yurt oldidagi burchi va mas'uliyatini o'yalmaydigan, faqat bir kunlik hayot bilan yashaydigan kimsalarga aylanib qolishi mumkinligini tasavvur qilish qiyin emas".

Tabiyki, "ommaviy madaniyat" degan niqob ostida axloqiy buzuqlik va zo'ravonlik, individualizm, egotsentrizm g'oyalarini tarqatish, shuning hisobidan boyluk orttirish, boshqa xalqlarning necha ming yillik an'ana va qadriyatlarini, turmush tarzining ma'naviy negizlariga bepisandlik, ularni qo'porishga qaratilgan xatarli tahdidlar hech birimizni tashvishga solmay qo'ymaydi. Jamiyatda ommaviy madaniyat tahdidi quyidagi salbiy oqibatlarga olib keladi:

1. Inson o'z milliy tarixiy qadriyatlarini, an'analari urf-odatlarini unutib ularga mutlaqo befarq bo'lib qoladi.

2. Chet el mamlakat turmush tarzini, ya'ni o'zi yoqtirgan chet el pop-estrada musiqa yo'nalishlarini, chet el kino yulduzlarini, xorijiy filmlarni o'zlashtira boshlaydi va ularni ommaga keng targ'ib etadi.

3. Milliy mentalitetimizga to'g'ri kelmaydigan G'arb qadriyatlarini qo'llab-quvvatlashni boshlaydi.

4. Insonlarda vatanparvarlik, vatanga sadoqat, vatanga muhabbat, fidoyilik tuyg'ulari yemirilib uning o'rniga Kosmopolitizm, ya'ni: butun Yer shari mening Vatanim degan shiorga amal qilish tuyg'usi shakllanadi.

5. Jamiyatning milliy-diniy, axloqiy meyorlari va tamoyillariga putur yetkaziladi.(misol uchun kattalarni hurmat qilish, ota-ona roziligi kabi qon qonimizga singib ketgan madaniyatdan ayrilish mumkin).

Biz yoshlarimizni bunga o'xshagan (olomoncha madaniyatdan) buzg'unchiliklardan qanday himoya qilmog'imiz kerak? Nima qilsak biz kelajagimiz bo'lgan farzandlarimizni bu kabi balolardan uzoqlashtira olamiz? Biz buning yechimini Yurtboshimizning so'zlaridan topamiz "Biz farzandlarimizni dunyoviy bilimlar bilan bir qatorda Imom Buxoriy to'plagan hadislar, Naqshbandiy ta'limoti, Termiziy o'g'itlari, Yassaviy hikmatlari asosida tarbiya qilmoqdamiz".

Demak biz yoshlarimizni "ommaviy madaniyat" ning xuruji, uning yuqumli "virus" laridan saqlash, himoyalashning eng muhim yo'li – ularda ma'naviy-mafkuraviy immunitetni oshirishimiz kerak bo'ladi. Buning uchun duvoviy bilimlar bilan bir qatorda, bobolarimiz qoldirgan ma'naviy merosni o'rganib, ularning hayotiy tajribalariga suyanishimiz lozimdir.

XXI asr axborot texnologiyalari rivoji yuqori cho'qqiga chiqqan davrdir. Dunyoni o'rgimchak to'ridek egallab olgan internet qator qulayliklar keltirib chiqardi. Ilgarilari yechimi haftalab, hatto oylab vaqt talab qiluvchi masalalar hozirgi kunda bir necha soat davomida hal bo'lmoqda.

Lekin, shu global tizimdan noto'g'ri maqsadlarda foydalanadigan kimsalar ham mavjud. Ular o'zlarining g'arazli maqsadlarini amalga oshirish niyatida hech narsadan toymaydilar. Hozirda dunyoning turli burchaklarida terroristik hurujlar ro'y bermoqda. Ular ushbu mamlakatlarning osoyishta hayoti va insonlarning tinch umrguzaronligiga tahdid qilishmoqda. Terrorchilar o'z saflariga doim yangi a'zolarni qabul qilish harakatida bo'ladilar. Buning uchun ular turli usullardan foydalanadilar. Bunday paytda bu kimsalarga internet qo'l keladi. Ular eng mashhur ijtimoiy tarmoqlarga kirib, to'qima nomlar ostida turli guruhlariga a'zo bo'ladilar. Bunday odamlar "da'vatchi" deb ataladi. Ular avvaliga o'zlarining asl niyatlarini oshkor etmaydilar, ko'plab do'stlar orttirishga harakat qiladilar. Turli shu guruhga a'zo odamlarning "post"lariga

izoh qoldiradilar. O‘z navbatida bu shaxslar o‘zlari, bir qarashda beozor ko‘ringan “post”lar, rasmlarni joylashtirishadi. Bular ota-onani hurmat qilish, iymonni mustahkamlash, vijdonga sodiq bo‘lish haqida bo‘ladi. Lekin ular bu ishni shunchaki qilmaydilar, balki ularga izoh qoldiradiganlarni poylaydilar. Ular insonning ruhiyatini shu daraja o‘rgangan bo‘ladilarki, bu izoh qoldiruvchilar orasidan ruhiyatida siniqish bo‘lgan yoshlarni darrov ajrata oladilar. Bu kimsalar shundan so‘ng bunday yoshlarga yaqinlashib olishga harakat qiladilar. Bu qanday sodir bo‘ladi? Odatda, ona yoki ota haqida “post” qoldirilganda, onasi yoki otasidan ayrilib qolganlar tushkun izoh qoldiradilar. Ular volidalari yoki padari buzrukvorlarini tiriklik paytlarida ko‘p xafa qilganlarini o‘ylab, o‘zlarini aybdor his qila boshlaydilar. Da‘vatchilar, eng avvalo, ana shundaylarga qarmoq tashlab ko‘radilar. Boshida bari o‘ta oddiy tuyuladi - da‘vatchi bu yoshlarga oddiy hamdardlik bildiradilar, o‘zlarining boshlariga ham xuddi shunday qayg‘u soya solganini, shuning uchun bu qanday dard ekanligini o‘zlarida his qilganlarini orada qistirib o‘tadilar. Darddosh odam topilganidan o‘sha yigit yoki qizning ko‘ngli bir qadar taskin topgandek bo‘ladi. U da‘vatchi bilan muloqot qila boshlaydi. Bu suhbatlar umumiy guruhdan shaxsiy sahifaga ko‘chadi. Da‘vatchi har doim o‘zini qiziqarli va donishmand suhbatdoshdek tutadi. O‘ljaning unga bo‘lgan ishonchi ortganini sezgan damdan boshlab, u sekin asta - o‘z g‘oyalarini yigit yoki qizning ongiga singdirib borishga harakat qila boshlaydi. Uning domiga tushganini sezmaganlar esa sekin-asta da‘vatchining har kuyga solib o‘ynatsa bo‘ladigan o‘yinchog‘iga aylanadi. Shundan keyin da‘vatchi rejasining ikkinchi qismiga o‘tadi – o‘ljasi bilan shaxsan uchrashib yoki internet orqali buzg‘unchi g‘oyalar aks etgan, ta‘qiqlangan qo‘llanma va risolalarni o‘qishga bera boshlaydi.

Ular bu adabiyotlarning, albatta, o‘qib chiqilishini nazorat qilib turadilar. Qanday baloga giriftor bo‘lganlarini sezmagan yoshlar bu kitoblarni o‘qib chiqqach, ulardagi g‘oyalar onglariga mustahkam o‘rnashib qoladi, ularda zikr etilgan fikrlar go‘yo ayni haqiqatdek tuyuladi. “O‘lja” bu bosqichdan o‘tgach, da‘vatchi uni so‘nggi bosqichga - terrorchi guruhlariga, go‘yoki dunyoda adolat



oʻrnatish maqsadida, qoʻshilish uchun oʻz yurtlarini tark etishga unday boshlaydi. Miyasi xavfli gʻoyalar bilan zaharlanib boʻlgan inson, nihoyat, oʻz Vatanni va oilasini tark etib, begona mamlakatga ketishga rozi boʻladi. Qanday mudhish xatoga yoʻl qoʻyganlarini ular ancha kech anglaydilar. Koʻplari ortga qaytishga harakat qilishadi, lekin juda kam kishi buni uddalaydi, chunki terrorchilar oʻzlarining qurbonlarini osonlikcha qoʻyib yubormaydilar.

Dunyoni oʻrgimchak toʻridek oʻrab olgan internet yoshlarning ongini bundan boshqacha usullarda ham zaharlashi mumkin. Yigit va qizlarimiz ijtimoiy tarmoqlar orqali bizning milliy madaniyatimiz va axloq-odob tushunchalaridan yiroq boʻlgan maʼlumotlarga ega boʻlishyapti. Bunday video yoki xabardagi manzaralarni koʻrib, oʻzlarida sinab koʻrishga boʻlgan qiziqish, ayniqsa, oʻsmirlar orasida koʻp uchraydi. Bu narsa esa axloq-odob normalari tushib ketishiga olib kelmoqda. Yigit va qizlar “Ommaviy madaniyat” deb nomlangan tushuncha asiriga aylanib qolishmoqda.

Hozirgi globallashuv davrida mustaqil davlatimizning jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvi jadallik bilan kechayotgan jarayondir. Hamkorlik aloqalari kuchayib barcha sohalar kabi madaniyat va maʼnaviyatda ham aloqalar erkinligi yuzaga keldi. Natijada ijtimoiy hayotimizning baʼzi jabhalarida muammolarni keltirib chiqardi. Gʻoyaviy boʻshliq sabab jamiyatimiz, mentalitetimizga yot illatlarni kirib kelishi mumkinligini unutmasligimiz zarur.

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov bu borada “Yuksak maʼnaviyat – yengilmas kuch” asarida katta tashvish bilan ogohlantirishi bejiz emas: *«Tabiiyki, “ommaviy madaniyat” degan niqob ostida axloqiy buzuvchilik va zoʻravonlik, individualizm, egotsentrizm gʻoyalarini tarqatish, kerak boʻlsa shuning hisobidan boylik orttirish, boshqa xalqlarning necha ming yillik anʼana va qadriyatlarini, turmush tarzining maʼnaviy negizlariga bepisandlik, ularni qoʻporishga qaratilgan xatarli tahdidlar odamni tashvishga solmay qoʻymaydi»*. Yuqorida sanab oʻtilgan tahdidlar turli vositalar orqali jamiyatimizga kirib kelmoqda. Turli filmlar, kliplar, audio va videomateriallar, internet tarmogʻidagi

materiallar orqali xavf solmoqda. Ommaviy madaniyatning yoshlarga va jamiyatga halokatli ta'siri juda dahshatli. Bu birinchi navbatda oila, sadoqat vafo, do'stlik kabi an'anaviy qadriyatlarning yemirilishidir. Shuningdek, milliy urf-odat, an'analarni yo'qotish evaziga jamiyatimizga yot bo'lgan qadriyatlarni tiqishtirishga qaratilgan harakatlardir. Bulardan himoyalaniish uchun yoshlarning mafkuraviy immunitetini kuchaytirish, milliy-ma'naviy qadriyatlar ruhida tarbiyalash eng ustuvor vazifalardandir.

Xususan, hech bir xalqni milliy, ma'naviy an'analariga asoslanmagan, faqat insoniy axloqqa ters hayot tarziga chaqiruvchi "ommaviy madaniyat"ning tashvishli tomonlari juda ko'p. Ayrim g'oyaviy tuzoqlar ko'rinishidan asr yangiligi yoki "madaniyat"iga o'xshasada, ular kishilarga, ayniqsa, yoshlarga moydek yoqishi bilan yanada xatarlidir. Garchi, "ommaviy madaniyat" biror bir millatning ma'naviyatiga asoslanmaganligi, balki har bir millatning madaniyat va ma'naviyatiga tahdid bo'lganligi uchun ham ayni madaniyatsizlikdir. Bugungi kunda uning ta'siri kuchayib, hech bir xalqning milliy va ma'naviy an'anasi, odatlariga to'g'ri kelmaydigan turli "urf-odatlar" ko'paymoqda. Achinarlisi, ayrim yoshlar uning ta'siriga tushib qolishmoqda.

Bunday yot g'oyalar ta'siriga tushib qolgan ayrim yoshlarda buzg'unchilik, zo'ravonlik kayfiyatini uyg'otishining oldini olish maqsadida O'zbekiston "Adolat" SDP viloyat Kengashi hamda partiyaning shahar va tuman Kengashlari tomonidan turli hil tadbirlar tashkillashtirilmoqda. Jumladan uyushmagan yoshlar o'rtasida mini futbol, shaxmat, stol tennisi kabi turli sport musobaqalari muntazam o'tkazilib kelinmoqda.

Qolaversa, yoshlarning ongida ma'naviy bo'shliq qoldirmaslik maqsadida partiyaning "Vatan kelajagi yoshlar qo'lida" loyihasi doirasida "Deputat – yoshlar davrasida", "Farzandlari sog'lom yurt – qudratli bo'lur" loyihasi doirasida "Biz odam savdosi va turli ekstremistik oqimlarga qarshimiz", "Yaxshi kasb-yetuk mutaxassis-munosib ish haqqi" loyihasi doirasida "Kasbim mening – faxrim mening", "O'zbekiston – inson qadri ulug'langan yurt" loyihasi

doirasida “Biz hech kimdan kam emasmiz, kam bo’lmaymiz ham!” mavzularida ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar o’tkazilmoqda.

Bundan tashqari viloyat Xalq ta’limi boshqarmasi hamda uning hududiy bo’limlari bilan hamkorlikda maktab o’quvchilarining ijtimoiy-siyosiy ongini oshirish, ularning huquqiy madaniyatini shakllantirish maqsadida turli xil seminarlar tashkillashtirilmoqa.

## 2.2 Shaxs estetik did va ehtiyojlarini shakllanishiga ommaviy madaniyatningning salbiy ta'sirini oldini olish yo'llari

«Tarbiya qancha mukammal bo'lsa, xalq shuncha baxtli yashaydi», deydi donishmandlar. Tarbiya mukammal bo'lishi uchun esa bu masalada bo'shliq paydo bo'lishiga mutlaqo yo'l qo'yib bo'lmaydi. Barchangizga ayon, hozirgi kunda dunyo miqyosida beshafqat raqobat, qarama-qarshilik va ziddiyatlar tobora keskin tus olmoqda. Diniy ekstremizm, terrorizm, giyohvandlik, odam savdosi, noqonuniy migratsiya, «ommaviy madaniyat» kabi xavf-xatarlar kuchayib, odamzot asrlar davomida amal qilib kelgan e'tiqodlar, oilaviy qadriyatlarga putur yetkazmoqda» deb ta'kidlaydi Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev<sup>1</sup>.

Ma'naviyat inson ruhiy kamolotining muhim mezoni, millat abadiyligini va mamlakat taraqqiyotini ta'minlashdagi ustuvor omil hisoblanadi. Ma'naviyat jamiyat taraqqiyoti, millat kamoloti va shaxs barkamolligini belgilab beruvchi asosiy mezonlardan biri hisoblanadi, chunki, ma'naviyat rivojlangandagina jamiyatda iqtisodiy va ijtimoiy - siyosiy barqarorlik vujudga keladi hamda mamlakat va millat taraqqiy etadi.

Xalqimiz adolat, tinchlik, axil qo'shnichilik va insonparvarlikning nozik kurtaklarini asrlar osha avaylab asrab kelmoqda. O'zbekistonni yangilanishining oliy maqsadi ana shu an'analarni qayta tiklash, ularga yangi mazmun bag'ishlash, zaminimizda tinchlik va demokratiya, farovonlik, madaniyat, vijdon erkinligini qaror toptirish va har bir kishini kamol topishi uchun zarur shart - sharoitlar yaratishdir.

Xalq ma'naviyatini, millat ma'naviyatini sun'iy ravishda, qandaydir o'ylab topilgan aqidalarga tayanib, yuzaga keltirib ham, keskin o'zgartirib ham bo'lmaydi. Chunki ma'naviyat bir kunda, bir yilda, xatto bir asrda shakllanadigan narsa emas, u har bir xalqning juda uzoq tarixi qa'ridan oziq olib, o'zida teranlik kasb etib keladi.

---

<sup>1</sup> SH.Mirziyoyev. Erkin va obod, demokratik jamiyatni barchamiz birgalikda barno etamiz. // Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – T.: O'zbekiston NMIU, 2017. - 592

Ajdodlarimizdan qolgan meros har bir millatning nafaqat o`tmishi, shuning bilan birga istiqboli uchun ham kuch va ilxom manbai hisoblanadi. Hech qachon hech bir halq o`zligidan butkul kechib, boshqa xalq ma`naviyati xisobidan kamolga erisha olmagan. Biron bir xalq to`lig`icha o`zligidan kechib, o`zga xalq ma`naviy dunyosini qabul qilsa, demak, unday xalq yo`q bo`ladi, o`z ma`naviy qiyofasini yo`qotgan millat yo`qolgan millatdir. SHu sababli ham milliy mustaqillik poydevorini ma`naviy mustaqillik tashkil etadi. Ma`naviy mustaqillikni esa xalqning ma`naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirishsiz tasavvur ham qilib bo`lmaydi.

“Ma`naviyat o`z xalqining tarixini, uning madaniyati va vazifalarini chuqur bilish va tushunib etishga suyangandagina qudratli kuchga aylanadi”  
“Ma`naviyat” tushunchasining mohiyatini ochib berar ekan I.A.Karimov shunday deb ta`kidlaydi. “Ma`naviyat - taqdirning ehsoni emas. Ma`naviyat inson qalbida kamol topishi uchun u qalban va vijdonan, aql va qo`l bilan mehnat qilishi kerak”<sup>1</sup>.

Bu ta`rifdan ko`rinib turibdiki, ma`naviyat o`z - o`zidan shakllanadigan, tayyor ko`rinishda bo`ladigan jarayon emas, mazmun mohiyati jihatidan esa, ko`p - qirrali va keng kamrovli tushunchadir. Ma`naviyat har qanday jamiyat taraqqiyoti uchun asosiy manbaa bo`lib, u qanchalik yuksak bo`lsa, bajariladigan ishlarning samaradorligi va unumi ham shu darajada yukori bo`ladi. Ma`naviyatsiz buyuk kelajak yo`q, chunki uni robotlar emas, insonlar yaratadi. Insonlar ongi - shuuri, umuman olganda ma`naviyati qanday bo`lsa mamlakat kelajagi ham shunga yarasha bo`ladi. Buni chuqur anglagan yurtboshimiz ma`naviyat tushunchasining mazmun - mohiyatini yanada boyitib, ma`naviyat “insonni ruhiy poklanish va yuksalishiga da`vat etadigan, inson ichki olamini boyitadigan, uning iymon - irodasini, e`tiqodini mustahkamlaydigan, vijdonini uyg`otadigan qudratli botiniy kuch”<sup>2</sup>dir deb ta`riflaydi.

Umuman shuni aytib o`tish kerakki, O`zbekistonning birinchi Prezidenti I.A.Karimov ma`naviyat masalasiga e`tiborini qaratib, ma`naviyat

---

<sup>1</sup> I.A.Karimov Yuksak ma`naviyat engilmas kuch.- T.;Ma`naviyat. 2008 yil, 38-bet

<sup>2</sup> O`sha joyda

tushunchasining mazmun mohiyatini ochib beribgina qolmasdan, balki barcha asarlarida bu sohada amalga oshirilishi kerak boʻlgan islohotlarning strategik yoʻnalishlarini ham, oʻz oldimizga qoʻyishimiz zarur boʻlgan maqsad va vazifalarimizni ham belgilab beradi. Maʼnaviy yuksalish milliy mafkura bilan uygʻunlashganda milliy taraqqiyot va milliy tiklanishning asosini tashkil etadi.

Bugungi kunda «Ommaviy madaniyat» niqobi ostida maʼnaviyatga tahdid solayotgan kuchlar nafaqat Sharq, balki oʻzga mintaqalarni ham oʻz domiga tortmoqda. «Ommaviy madaniyat» maʼnaviy-mafkuraviy tazyiqning eng xavfli koʻrinishlaridan biri boʻlib, maʼnaviyatga, milliy qadriyatlarga qarshi qaratilgan tajovuzdir. «Ommaviy madaniyat» «Koʻngilochar industriya» tomonidan yaratilib, oxir-oqibatda insonni manqurt darajasiga tushiradigan, xalqni esa olomonga aylantirishi mumkin boʻlgan illat, bir soʻz bilan aytganda, gʻayriaxloqlikdir.

Ommaviy ravishda industrial (sanoat) usullarda ishlab chiqiladigan va ommaviy axborot vositalari yordamida tarqatiladigan, zamonaviy texnologiyalar va qulayliklar sharoitida vujudga kelgan madaniyatni anglata boshladi. Zamonaviy ommaviy madaniyat – jamiyatdan begonalashgan, oʻz identligini, individualligini yoʻqotgan, oʻzi ham maʼlum bir funktsiyani bajaruvchi mexanizmga aylangan bugungi davr kishisining ichki xossasi va ehtiyojidir<sup>2</sup>. Individualligidan mahrum, aqli va jismoniy kuchi tovarga aylangan kishiga oʻziga oʻxshagan individualligidan mahrum etilgan, ommaviy hisoblangan madaniy mahsulot kerak. Zamonaviy ommaviy madaniyatning shakllanishi industrial jamiyatda boshlanib, alohida ijtimoiy fenomenga (hodisaga) aylanishi postindustrial jamiyatda yuz berdi. Uning vujudga kelishining, tabiiyki, oʻz moddiy-iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, mafkuraviy omillari bor. Eng avvalo, bu jarayonga jamiyat rivojlanishining umumiy tendentsiyalari taʼsiri toʻgʻrisida gapirish lozim. Kapital milliy chegaralardan chiqib, transmilliy kompaniyalar vujudga keldi. Bank-kredit, savdo-sotiq, statistik va buxgalter hisobotlarining, ishlab chiqarish texnologiyalarining, isteʼmol buyumlarining birxillashuvi, standartlashuvi yuz berdi. Bu dunyo miqyosida odamlar turmush tarziga,

jamiyat hayotining boshqa sohalariga, jumladan, madaniy hayotga ta'sir ko'rsatdi, jahon miqyosida urbanizatsiyaning kuchayishiga olib keldi. Shaharlarda standartlashgan turmush tarzi qaror topa boshladi. Ommaviy madaniyat mahsulotlari ko'prok bir marta foydalanishga mo'ljallangan. Ular tez unutiladi, bozor va moda talabi asosida o'zgarib, tinimsiz yangilanib, ko'payib, texnologik jihatdan zamonaviylashib, modernizatsiyalashib boraveradi. Uning ushbu jihati ham moddiy buyumlarnikiga o'xshaydi. Texnologik eskirganlari yoki modadan chiqqanlari ikkilanmasdan tashlab yuboriladi. Masalan, bugungi kunda gramplastinkalarning, patefon va radiolarning, tasmali magnitofon va plynkali fotoapparatlarning, mexanik yozuv mashinkalarining vaqti o'tdi. Ular o'rnini raqamli texnologiyalardan foydalanadigan yangi buyumlar egalladi. Bugungi uyali telefon apparatlarining axborot saqlash xotirasi va har xil operatsiyalarni bajarish tezligi o'n-o'n ikki yil burungi kompyuterlarnikidan qolishmaydi. Zamonaviy ommaviy madaniyatning yana bir xususiyati to'g'risida shartli ravishda bunday deyish mumkin: Madaniyatni o'zlashtirish «kitobiy shakl»dan ko'prok «vizual shakl»ga, ya'ni o'qib-o'rganishdan, aqliy mehnat qilishdan ko'ra ko'proq TV, kino, video, internet orqali ko'rishga, tomosha qilishga, dam olish bilan birlashtirishga o'tib ketdi. Bu juda muhim belgidir. Zero, bunda ommaviy madaniyatning, bir tomondan, aholining keng qatlamlarini o'z ta'siri ostida saqlash, ular ustidan hukmronlik qilish, tez sur'atda tarqalish qudrati aks etsa, ikkinchi tomondan, inson ongi, tafakkuri yuksalishi uchun ahamiyati pastligi namoyon bo'ladi. Odamlar bo'sh vaqtini ko'proq TV ekran qarshisida o'tkazadi. Ba'zan kafe, klub yoki stadionga, kontsert-shoulariga borib turadi. Lekin ular o'zaro kam muloqot qilib, bir-biridan va jamiyatdan tobora begonalashib borayotir. Kamayib ketgan jonli muloqot o'rnini ko'proq internet yordamida amalga oshiriladigan virtual muloqot to'ldirmokda. Vizual ommaviy madaniyat inson tafakkurini, fantaziyasini, tasavvurlarini, mavhum tushunchalarni qabul qilish, tahlil etish va eslab qolish qobiliyatini rivojlantirmaydi. Buni hozirgi ayrim yoshlarning kitob o'qimay qo'yganida, o'z fikrini tushunarli qilib yozma ifoda etolmasligida,

og'zaki nutqining g'alizligida ko'rish mumkin. Vizual madaniyat tayyor stereotip (andozaviy) fikr va g'oyalarni singdirib, inson dunyoqarashini, ongini boyitmaydi, balki boshqaradi. Postmodernizm nazariyachilari – F. Djeymisson, R. Bart, J. Batay, J. Bodriyyar, U. Eko va boshqalar vizual madaniyatning ushbu jihatlarini tashvish bilan qayd etib, u chinakam hayotiy reallikda emas, balki o'zi yaratgan sun'iy reallikda yashashini, «idora etiladigan omma»ni shakllantirishini, bu fenomenga nisbatan klassik uslubdagi tahlilni qo'llab, qadriyatlar nuqtai nazaridan baho berib bo'lmasligini ta'kidlaydi. Vizual janrlarning ustunlik qilish tendentsiyasini birinchilar qatorida payqagan D. Rismen ommaviy madaniyat «odam-lokator»ni shakllantirishini aytgan edi (lokator – radar antenasining boshqacha nomi). Kitob o'qish jarayonida inson asar tilining, har bir so'zining mazmunini chaqishga, voqea va personajlar munosabatini esda tutib asarni tahlil qilishga, baho berishga intiladi. Kitobning «matniy» mazmuni inson tafakkuri, tasavvuri va fantaziyasini rivojlantiradi, xotirasini mustahkamlaydi, dunyoqarashini boyitadi. TVning «vizual tasviri» esa insonni chuqur o'ylashga, tafakkur va fantaziyasini rivojlantirishga ko'p ham undamaydi. Aniqrog'i, bunga imkon qoldirmaydi. Chunki TV orqali namoyish etilayotgan manzara va voqealar tomoshabin ko'z oldida tayyor. Ularning efirga uzatilish sur'ati shunchalik tezki, inson ko'rayotgan va eshitayotganlarini taxlil qilib, anglab yetish va mustaqil xulosa chiqarishga ulgurmaydi. Uning tayyor holda singdirilayotgan xulosa va fikrlarni o'ylamay-netmay qabul qilishdan boshqa iloji yo'q. Vizual madaniyat inson dunyoqarashini, ongini boyitmaydi, balki boshqaradi. «Uchinchi to'lqin» nomli mashhur kitob muallifi E.Toffler vizual madaniyatni qabul etishning «zepping» shakli vujudga kelganini ta'kidlaydi. TV o'z ko'rsatuvlarini tinimsiz ravishda reklama roliklari bilan to'ldirib turishi tufayli, inson reklamani ko'rmaslik maqsadida pult tugmachalarini bosib, telekanallarni to'xtovsiz almashtirishi oqibatida uning ongida quroq, uzuq-yuluq axborot va taassurotlardan hosil bo'lgan o'ziga xos obraz shakllanadi. Bu obraz aqlni, xayolotni ishlatishni, xabarni anglab olishni talab qilmaydi. Inson uzluksiz ravishda axborotni «yangilash», «almashtirish» bilan band. Industrial jamiyat



umuman madaniyatga, katta ta'sir ko'rsatdi. Postindustrial, postmodern, axborot jamiyatlarining ta'siri esa yanada kuchaydi. Birinchi galda, bu hol madaniyatning nisbatan keng tarqalishi, ya'ni ommalashuvi uchun shart-sharoit yuzaga kelganida, ommaning umumiy saviyasi o'sganida ko'rinadi. SHu sababdan amerikalik sotsiolog T. Parsons va boshqa bir guruh olimlar ommaviy madaniyatni himoya qilib chiqqan edi. Ularning fikricha, OAV orqali millionlab kishilar jamiyatda kechayotgan voqealardan xabardor bo'ladi, adabiyot, san'atning yuksak namunalari, ilm-fan yutuqlari bilan tanishadi, bilimi va saviyasini o'stiradi, dunyoqarashini kengaytiradi. G'arb mamlakatlarida uzluksiz davom etgan siyosiy, iqtisodiy, mafkuraviy, ijtimoiy-sinfy kurashlar, turli guruhlarning hokimiyatga intilib, o'zaro olib borgan raqobati asta-sekin qonun ustuvorligi tamoyili va demokratik me'yorlar, qoidalar qaror topishiga olib keldi. Demokratiya tizimining rivojlanishi saylovchilar ovozi uchun kurashni avj oldirdi. SHunga muvofiq, omma ongiga ta'sir ko'rsatish usullari takomillashdi. Mahsulot reklamasi bilan bir qatorda siyosiy reklama va tashviqot rivoj topib, rang-baranglik kasb etdi. Nomzodlarni qo'llab-quvvatlab, reklama mazmunidagi siyosiy roliklar, bukletlar, plakatlar, bannerlar chiqarilishi, ommaviy konsert va aktsiyalar o'tkazilishi rusum bo'ldi. Bular bari G'arb ommaviy madaniyatining uzviy tarkibiy qismiga aylandi. B.Jezinskiy, D.Makdonald, G.Gens, M. Maklyuen va boshqalar ommaviy madaniyat shaxs rivojlanishida va demokratik siyosiy institutlar qaror topishida ijobiy rol o'ynashini har tomonlama asoslashga urindi. D.Bell ommaviy madaniyat tufayli AQSHda mafkuraviylikdan xoli g'oyalar, obrazlar va ko'ngilxushlik qilishning barchaga baravar tizimi vujudga kelayotganini bundan yarim asr burun e'tirof etgan edi. CHunki ommaviy madaniyat mahsulotlari muayyan bir tabaqaga, sinfga emas, balki jamiyatning barcha a'zolariga mo'ljallangan. Ushbu holat ommaviy madaniyatning o'ziga demokratik xususiyat bag'ishlashini ko'pchilik olimlar qayd etadilar. SHu sababdan yuqorida aytilganidek, g'arbning ba'zi olimlar» uni to'liq oqlab, universal ahamiyatini, hozirgi zamon jamiyatidagi yetakchiligini, demokratik xarakterini, ijtimoiy tenglikni ifodalashini e'tirof etadi. G'arbning

boshqa bir guruh olimlari esa, bu fikrga qo'shilgan holda, ommaviy madaniyatni qattiq tanqid ostiga olmoqda. Yana bir guruh olimlar uning kuchli va zaif, ijobiy va salbiy jihatlarini baravar yoritishga urinmoqda. Keyingi yillarda ushbu ijtimoiy hodisani himoya qilish, oqlash tendentsiyasi tadqiqotchilar orasida kuchayib borayotir, ammo masalaga biryoqlama yondashib bo'lmaydi. Masalan: haqiqatan ancha murakkab, chunki ommaviy madaniyat juda ko'pqirrali, rang-barang, ziddiyatli hodisadir. U jamiyat hayotining barcha sohalarini – siyosat va davlat idoralari, jamoat tashkilotlari faoliyatidan to alohida fuqarolarning dam olishi, bo'sh vaqtini o'tkazishigacha, ishlab chikarishdan – iste'moligacha, davlat boshliqlarining norasmiy «galstuklarsiz» uchrashuvlaridan – oddiy odamlarning turistik sayohatlarigacha kirib borgan. Ommaviy madaniyat odamlar hayotining aksariyat ehtyojlarini ta'minlashi bilan umuman olganda ijobiy rol o'ynaydi. Ularni davr va jamiyat talablariga moslashtiradi. XX asr boshlarida yashagan kishi XXI asrga kelib qolsa, o'ta hayratga tushar, shoshib qolardi. Jamiyat hayoti sur'atlariga, transport oqimiga, zamonaviy telekommunikatsiyalarga, axborotga, moddiy va ma'naviy iste'molga moslashishda juda qiynalardi. Televizordan, radiodan, magnitofondan, uyali telefondan, kompyuterdan, elektron pochtdan, internet magazindan va xizmat turlaridan foydalanishni bilmaydigan, mototsikl, avtomobil, samolyot kabi transport vositalari, kosmik kemalar, sun'iy yo'ldoshlar, mobil aloqa, maishiy elektrotexnik buyumlar haqida tasavvurga ega bo'lmagan inson hozirgi jamiyatga, uning talablariga, odamlar o'rtasidagi zamonaviy aloqalarga, muloqotga moslasha olmaydi. SHu sababdan ommaviy madaniyat insonni jamiyatga moslashtirib, adaptatsion vazifani bajaradi. Zamonaviy iste'mol, turmush tarzi, yashash sifati, maishiy qulayliklar, TV, radio, internet, OAV, elektron aloqa turlari va shakllari ko'proq ommaviy madaniyatga mansubdir. Ularning bir qismi yuksak va ommaviy madaniyat diffuziyasi natijasidir. Ba'zi bir demokratik siyosiy va fuqarolik institutlari, ayrim demokratik qoida, me'yorlar va amaliyot, fuqarolarning davlat idoralari, jumladan, oliy davlat organlari bilan kompyuter va elektron vositalar orqali aloqa qilishi, taklif va mulohazalarini bildirishi, elektron parlamentlar va

hukumatlarning tashkil etilishi ham ommaviy kommunikatsiya vositalari va u tufayli vujudga kelgan zamonaviy ommaviy siyosiy madaniyat bilan bog'liq hodisalardir. Lekin ommaviy madaniyat insonga ko'plab qulayliklar yaratishi bilan birga, uning ongiga ziddiyatli, ayrim hollarda ancha salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ommaviy madaniyat mahsulotlari odamlarning iste'mol ehtiyojlarini qondirsada, ularning ma'naviy dunyosi rivojlanishiga kam ta'sir ko'rsatadi. Ommaviy madaniyat shaklan mafkurasizlashgan bo'lsa-da, odamlar ongini boshqarishiga, «bir o'lchovli», konformist, loqayd odamlarni hamda virtual elektron o'yinlar, kompyuter va musiqa bandilariga (asirlariga) aylangan yoshlarni, jamiyatda iste'molchilik psixologiyasini shakllantirishiga ko'ra, mavjud siyosiy tuzumga va hukmron sinflarga xizmat qiladi. Bu g'arb olimlari tomonidan ko'plab marta qayd etilgan va dalillangan. Ommaviy madaniyatning deideologizatsiyalashuvi, ya'ni mafkurasizlashuvi, nisbiy xarakterga ega, ko'proq uning ichki teran ijtimoiy funktsional oqibatlariga emas, balki tashqi jihatlariga – shakliga va yuzaki utilitar, amaliy vazifalariga taalluqli.

G'arb dunyosida «Ommaviy madaniyat»ni «populyar» yoki qisqartirilgan holda, «pop-kultura» (ya'ni «ommaviy madaniyat») deb atashadi. Garchi «madaniyat» deb atalsa-da, aslida, tub mazmun - ma'nosiga, maqsad niyatiga ko'ra «ommaviy madaniyat» chinakam madaniyatning kushandasidir.

Mutaxassislar (faylasuf va sotsiolog olimlar)ning fikricha, hali ilm-fanda «antikultura» («g'ayrimadaniyat») degan ilmiy tushuncha shakllanmaganligi uchun «Pop (ommaviy) madaniyat» tushunchasi, nochorlikdan qo'llanilmoqda. Chunki, «ommaviy madaniyat», aslida madaniyatsizlik, ya'ni ma'naviyatsizlik va axloqsizlik sinonimidir. «Ommaviy madaniyat» shu boisdan, eng avvalo, yuksak iste'dod va o'lmas ma'naviy-axloqiy g'oyalar bayroqdori bo'lgan mumtoz madaniyatga, san'atga, uning boyliklariga qarshi tish-tirnog'i bilan kurashib, uni inkor etib kelyapti. G'arb dunyosining o'zidagi faylasuflar, sotsiolog olimlar, «Bizga «To'qqizinchi simfoniya» (Betxoven) kerak emas!» yoki «Mona Liza»ni loyga qorishtiramiz!» kabi jaholatparastlikka asoslangan

xitoblar «ommaviy madaniyat» tarafdorlari va muxlislarining dasturiy qarashlari negizini tashkil etadi, deb yozadilar.

Taassufli jihati shundaki, gohida g'oyatda iste'dodli insonlar ham «ommaviy madaniyat» targ'ibotchilarining qutqusiga uchrab, uning tegirmoniga suv quymoqda. Masalan, rassom Salvador Dali Leonardo Davinchining «Mona Liza» («Jakonda») asarini kulgi qilib, Mona Liza lablari ustiga mo'ylov chizgan va «Mo'ylovli Jakonda» asarini yaratgan. Tadqiqotchilarning fikricha, mana shunday «achchiq istehzoli, qora mazmunli kulgi» - «ommaviy madaniyat» faoliyatining eng yetakchi belgilaridan biridir. «Ommaviy madaniyat» namoyandalari qora, zaharxanda, behayo kulguni «isyon ifodasi» deb bilishadi. «Nimaga qarshi isyon» degan savol tug'iladi. Agar «pop-madaniyat» dunyoga «ehson» etayotgan «pop-art» («tasviriy san'at» desa ham bo'ladi), «pop-natijalariga qarab hukm yuritadigan bo'lsak, ular insoniyat yaratgan barcha qadriyatlarni isyonkorlik bilan inkor etadi: yuksak madaniyatni, ma'naviyatni, axloqni, yuksak orzu-maqсадlarni mensimaydi... Ular uchun ezgulikning o'zi yo'q. Jumladan, san'at - alohida iste'dodlar tomonidan yaratiladigan ma'naviy boyluk, mo'jiza ekanligi kabi ijodning oliy mezonlari «pop-madaniyat» tarafdorlarining o'ta darajada g'ashini keltiradi. Ularcha, hamma san'atkor bo'lishi mumkin. Hamma narsa san'at atalishi mumkin. «Pop-art» - ommaviy san'at shu xulosa manbaida vujudga kelgan.

Chunonchi, «ommaviy madaniyat» namoyandalaridan biri Karl Manning fikricha, atrof-borliqda, maishiy hayotda mavjud barcha narsalar (masalan, konserva bankalari, siniq tish cho'tkalari, mashina, vodoprovod kabilarning zanglagan bo'laklari, turli suratlar, jurnal-gazeta qiyqimlari ham) hayot bag'ridan alohida ajratilib, ularga muayyan tartib berilib, odamlar nazariga tutilsa, bu oddiy chiqindilar baayni arxeologik qazilmalar chog'ida topilgan qadimgi yunonlar davriga xos osori atiqalarday o'zgacha ahamiyat kasb etib, «san'at, madaniyat namunalari» qatoridan o'rin olar emish.

«Pop-art»chilarning dasturiy qarashi shundayki, ular insonni emas, aksincha, narsalar va buyumlarni e'zozlashadi; ma'naviy dunyoni emas,

maishiy-iste'molchilik his-tuyg'ularini qadrlaydilar va ularni keng ommalashtirishga intiladilar. Ularning ma'naviy pozitsiyasi - ma'naviyatni o'ldirish va «narsalarga qullik»ni rag'batlantirishdir. Amerikaning taniqli adibi R. Bredberi aytganidek, «ommaviy madaniyat» maktabidan o'tgan avlod uchun hayotning ma'nosi - avtomobil, televizor, muzlatkichga ega bo'lish. Agar televizor ikkita bo'lsa, ularga shuncha yaxshi<sup>1</sup>.

«Ommaviy madaniyat»da «Pop (ommaviy)-muzika» alohida o'rin tutadi. «Pop-muzika»ni «Yangi rok» belgilaydi. «Yangi rok», ta'bir joiz bo'lsa, kuchaytirilgan ritmik tuzilmali musiqadir. Ya'ni jazavali ritm, zarb, shovqin ushbu musiqaning qiyofasidir. Bu musiqa tinglashga, qalbdan huzurlanishga emas, balki vujud harakatiga, talvasali raqsga yo'naltirilgan. «Ommaviy madaniyat»dagi texnik-ijro vositalari musiqa imkoniyatlarini nihoyatda toraytirmoqda, polifonizm - musiqiy sadolar boyligi va rang-barangligini yo'qqa chiqarmoqda.

Umuman aytganda, «pop-muzika» ijrochiligi ko'ngilochar musiqa niqobi ostida ommaviy vasvasali, shaytoniy talvasali, badaxloq raqslar, ko'pincha oxiri janjal, ur-yiqit, vahshiyliklarga borib yetadigan agressiv diskoteka shoularini uyushtirish bilan ajralib turadi. 1970 yilda Kaliforniyaning Altamonte shahrida bo'lgan musiqa festivalida o'zini «pop-muzika» qiroli hisoblaydigan «Rolling Stounz» («Aylanayotgan tosh») guruhi konserti ana shunday ur - yiqitlar bilan tugab, politsiya bu mojaro oqibatlarini bilan uzoq muddat shug'ullanishiga to'g'ri kelgan edi. «Pop-muzika» namoyandalari o'z «ommaviy»liklarini ta'kidlash uchun sahnadagi xatti-harakatlari va kiyim-liboslari namoyishida ham - odob-axloq, jamiyatga ehtirom tuyg'ularini rad etib - asosan ko'cha, olomonchilik qonun-qoidalariga amal qiladilar va o'zlarining kulguli darajada ajralib turadigan shunday raftorlaridan faxrlanadilar. Afsuslanarli tomoni shundaki, bunday holatlarni «pop-muzika»chilar san'atdagi demokratizmning, xalqchilikning tantanasi, deb bilishadi<sup>1</sup>.

---

<sup>1</sup> Z.Umararov. Estetika" Nafosatshunoclik - T.: O'qituvchi, 2008,49-bet

<sup>1</sup> M. Safarov / "Ommaviy madaniyat" – ma'naviyat kushandasi - <http://www.ziyouz.com>

Aslida, ularning sahnada o‘zlarini bezorilarday tutishi san’atni va san’atkorlikni yerga uradi. Bu esa hayron qolarli emas: chunki asl san’atni yerga urish - «Ommaviy madaniyat»ning dasturiy, ya’ni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan vazifalaridan biridir.

«Pop-muzika» namoyandalari ijro etadigan qo‘shiq matnlari esa, avvalo, she’riyatning oddiy talablariga javob bermaydi yoki ular ko‘proq ko‘chada mavjud behayo, jargon iboralarga - qadriyatlarni, insoniy ezguliklarni kinoya, mazax qiladigan so‘zlarga asoslangan. Xullas, erkinlik, demokratiya «namunalari» deb tavsiya etilayotgan «pop-muzika» matnlari bilan haqiqiy she’riyat hamda asl xalqchil did, sog‘lom ruhiyat, ma’naviyat o‘rtasida yer bilan osmoncha farq bor.

1964 yilda AQShda T.Sazern va M.Xoffenberg degan ikki muallif hamkorlikda yozishgan «Kendi» («Asal qiz») nomli romanini nashrdan chiqarishdi. Keyinchalik bu kitob qayta va qayta, katta miqdorlarda amerikalik kitobxonlarga taqdim etildi. Ushbu roman asosida yaratilgan kinofilm kinotomosha bozorida keng tarqaldi. «Kendi» qahramoni, «Asal qiz» deb ta’riflangan juvon duch kelgan odam bilan to‘shakda aysh-ishrat qilishdan charchamaydi. Uning ishqibozlari - turli diniy va siyosiy qarashli shaxslardir. «Kendi» romani Amerika adabiyotida shakllangan va keng tarqalgan romantik tabiatli, shirin va go‘zal o‘y-xayollarga beriluvchan qizlar timsolini keskin hajv qiladi, ularning ustidan kuladi. Badiiy mahorat talablaridan ancha pastda turadigan, ammo «ko‘ngilochar»lik mavzui muxlislarini oshufta etgan bu kitobga AQSH adabiyotshunoslari: «Madaniy tanazzulda oldinga qarab qo‘yilgan ulkan qadam», deya kinoya bilan baho berishdi.<sup>1</sup>

Xuddi shu kitob bilan ayni bir vaqtda AQShda Jon Rechi ismli yozuvchining «Tungi shahar» nomli romani chop etildi. Kitob sahifalarida shahardagi tun - jinoyatlar bazmiga aylanadi, inson shaxsi va uning qadri esa mis chaqaga arzimaydi. Bu roman «tubanlik va qabohat - inson tabiatini belgilovchi haqiqatdir», degan g‘oyani tasdiqlash uchun bitilgan<sup>1</sup>.

---

<sup>1</sup>M.Safarov / «Ommaviy madaniyat» – ma’naviyat kushandasi - <http://www.ziyouz.com>

Biz nega bu ikki romanni esladik? Aynan, ana shu kitoblar va ular asosida yaratilgan filmlar - g'arbdagi «ommaviy madaniyat»ning adabiyotdagi, televideniya va kinodagi yo'lini belgilab berdi. Intim munosabatlar, shahvatparastlik, zo'ravonlik, xudbinlik, «Kim kuchli bo'lsa - o'sha haq» degan changalzorlar qonunini poetiklashtirish AQSH va Yevropa «ommaviy madaniyat»ida mana shunday asarlar ta'sirida keng ommalashdi. Agar ayrim G'arb davlatlarida erkak bilan erkak, ayol bilan ayol o'rtasidagi nikoh - hayratlanarli hodisa bo'lmay qolayotganligi nazar tutilsa, «ommaviy madaniyat» targ'ib etayotgan ma'naviy tubanliklar, behayolliklar, qabohatlar naqadar chuqurlashib ketganligini tasavvur etish qiyin emas.

Shu o'rinda zarur bir izoh: «pop (ommaviy) madaniyat»ning namoyandalari va targ'ibotchilari «pop-adabiyot»ni unchalik tan olishmaydi. Ularning fikricha «adabiyot - bu so'z san'ati» degani. «Pop (ommaviy) madaniyat» esa san'atga, jumladan, «so'z san'ati»ga qarshi. Aniqrog'i, «san'atsiz so'z», ya'ni yovvoyi, dag'al, tarbiya, axloqni xush ko'rmaydigan «ko'cha so'zlari»ga moyil. Biroq, ular xohlaydimi-yo'qmi, aynan G'arb olamida bemaza qovunning urug'iday ko'payib, tomir otayotgan «ommaviy madaniyat» ta'sirida «Pop (ommaviy) adabiyot» ham tug'ilyapti. Va bu «adabiyot» «ommaviy madaniyat»ning tuban g'oyalari targ'ibotiga xizmat qilmoqda.

«Ommaviy madaniyat» ko'pdan-ko'p shakllarda o'zini namoyon etadi.

Kitch (zarracha badiiy-estetik qimmatga ega bo'lmagan narsa va buyumlarga yuksak andoza tusini berish),

komiks (tagiga qisqa matn yoki luqmalar bitilgan behayo matbaa - rasm mahsulotlari),

starizm (sub'ektiv ehtirolarga berilgan holda, estrada artistlari, aktyorlar, sportchilar, telediktorlarni ilohiylashtirish),

xepining (avvaldan rejalashtirilmagan, nogahonda uyushtiriladigan «keskin» tomoshalar, masalan, royal, pianino yoki avtomobillarni urib abjag'ini chiqarish yoxud o't qo'yish orqali vahshiyona, ommaviy «ko'ngil ochish»lar uyushtirish) «ommaviy madaniyat»ning ayrim ko'rinishlaridir.

Hozirga kelib esa bu tamoyillar yanada g'ovlab, tomir otyapti. Masalan, «pop-muzika»ga xos o'sha ritmik «bit» (zarb), qo'shiq niqobidagi alahsirash, valdirashga yaqin didsiz «repp»lar ta'siri dunyo miqyosida tarqalib, milliy mumtoz va xalq musiqa san'atidan odamzotni uzoqlashtirmoqda. G'arb davlatlarining ayrimlarida «ommaviy madaniyat» tarqatayotgan «pornografiya» (sharmsizlik, hayosizlik) hamda sadizm (zo'ravonlik) targ'iboti yo'lidagi g'ovlar, qarangki, sud qarorlari asosida, birin-ketin olib tashlanayapti. Hatto AQSH maktablarida «Yangi rok» musiqalari o'quv dasturlariga kiritilgan...

«Ommaviy madaniyat» maktabining «natijalari» esa yaqqol ko'rinib turibdi. Masalan, AQShning ayrim maktablarida sodir etilayotgan portlashlar, bolalarning savdoyi, vos-vos kimsalar qo'lida qurbon bo'layotgani, yoshlar fe'lida kuchayib borayotgan agressivlik jahon ommaviy-axborot vositalari orqali hammaga ma'lum. «Ekkaningni o'rasan» deb shunga aytsalar kerak-da.

Afsuski, yer yuzidagi axborot almashinuvi mislsiz tezlashgan hozirgi globalizm sharoitida, G'arbdagi «markazlar» bundan foydalanib, boshqa davlatlar va xalqlar o'rtasida G'arb hayoti «jozibalari»ni, jumladan, «ommaviy madaniyat» ta'sirini «erkinlik shabadalari» tarzida imkon qadar keng yoyishga yeng shimarib harakat qilmoqdalar.

AQShning taniqli siyosatshunosi Z.Bignev B.Jezinskiy shunday yozadi: «...Madaniyat sohasida Amerika jahon yoshlari orasida alohida jozibadorligi bilan ajralib turadi. Bu esa AQShga jahonning hech bir davlatiga nasib qilmagan siyosiy ta'sirni ta'minlaydi. Ayniqsa, Amerikaning televizion dasturlari va filmlari jahon bozorining to'rt dan uch qismini egallaydi. Uning ommabop musiqasi, amerikaliklarning qiziqishlari, ovqatlanishlaridagi odatlari va hatto, kiyinishlariga butun dunyoda taqlid qiladilar»<sup>1</sup>.

AQSH siyosati va mafkurasi namoyandalari o'z mamlakatlari manfaati, siyosati va turmush tarzini faqat kitoblar, publitsistik chiqishlar orqali targ'ib etish bilan cheklanib qolayotganlari yo'q. Dunyo xalqlarini «g'arblashtirish»-ga urinishlar quroli sifatida, masalan, «ommaviy madaniyat» vositalaridan, turli-

---

<sup>1</sup> M.Safarov / «Ommaviy madaniyat» – ma'naviyat kushandasi - <http://www.ziyouz.com>



tuman axborot tarqatish (reklama, matbuot, kino, televideniya kabi) yo‘llaridan zo‘r berib foydalanilmoqda.

Birinchi Yurtboshimiz "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida bunday kimsalarga shunday real baho beradi: "Azaldan ma'lumki, beparvo odam dushmandan ham xavfliroqdir. Chunki dushmanning kimligi, asl qiyofasi siz uchun oldindan ma'lum bo'ladi. Biroq loqayd va beparvo odamning qiyofasini birdaniga bilib bo'lmaydi. Shuning uchun u ichingizda yurib, sizga qarshi tish qayraydigan dushmanlar uchun imkoniyat yaratib beradi"<sup>1</sup>.

Mashhur faylasuflardan biri ana shu hayotiy haqiqatni chuqur tahlil etib, quyidagi haqqoniy fikrlarni bayon qilgan: "Dushmanlardan qo‘rqma – nari borsa, ular seni o‘ldirishi mumkin. Do‘stlardan qo‘rqma – nari borsa, ular senga xiyonat qilishlari mumkin. Befarq odamlardan qo‘rq – ular seni o‘ldirmaydi ham, sotmaydi ham, faqat ularning jim va beparvo qarab turishi tufayli yer yuzida xiyonat va qotilliklar sodir bo‘laveradi".

XXI – asrda global muammolar orasida ko‘zga ko‘rinmaydigan, ko‘rinishidan sodda, hech ham ahamiyatga molik emasdek tuyiladigan, aslida esa inson ongini zabt qiladigan, o‘zi bilmagan holda uning mafkurasiga ruhiyatiga ta’sir eta oladigan, munosabatlar tizimini, milliy qadriyatlar, milliy o‘zligiga hamda madaniy tuzilmasiga zarba berib insonda o‘zgacha yot qiyofani namoyon qila oladigan ayrim axborot ta’sirlari mavjud ekanligi sir emas.

Bu omma madaniyati sifatida taqdim etilayotgan holatlar psixologlar, sotsiologlar, madaniyatshunoslar hamda faylasuflar tomonidan qo‘shirnoq ichidagi “ommaviy madaniyat” – deb nomlanmoqda.

Ommaviy madaniyatning o‘ziga xosligi nimada, uning jamiyatdagi funksiyasi nimadan iborat, insonlar uchun foydali va salbiy jihatlari nimalarda namoyon bo‘ladi, jamiyatning taraqqiyotidagi o‘rni salbiymi yoki ijobiymi, u nimalarni madh qiladi, u nimalarga da'vat qiladi, uning chaqirig‘ida qanday g‘oyalar singdirilgan, insonlar ayniqsa yoshlarda qanday xulq-atvorni shakllantirmoqda, u ma'naviy tanazzul elchisimi? – degan bir qancha savollar bizni ushbu maqolaga qo‘l urishga undadi.

Bizningcha ommaviy madaniyat ko'p qirrali jarayon. Inson yaralibdiki mavjud va hamma zamonlarda ham ommaviy madaniyat o'z faoliyati va maqsadlariga-yu kurashish mexanizmlari hamda usul-tamoyillariga ega bo'lib kelgan. Uning o'ziga xosligi shundaki, u zamonga qarab o'z shakl-shamoyilini o'zgartirib turgan. Ommaviy madaniyat ishlab chiqaruvchilari inson psixologiyasini yaxshigina o'zlashtirishgan va qaysi yoshni tezroq o'zlariga og'dirishi-yu, o'zlarining yashirin maqsadlarini amalga oshirish mexanizmlarini chuqur ishlab chiqqanlar.

Bizning fikrimizcha, ularning asosiy maqsadi tez fursatda mo'may daromadga, moddiy ta'minotga ega bo'lishdir. Ular bu maqsadni har xil sabablar bilan yashirishga, hastpo'shlashga harakat qiladilar.

Tarixdan ma'lumki, buzg'unchi madaniyat targ'ibotchilari butun bir davlatlar, millatlarning madaniy meroslarini tanazzulga yuz tutishiga sabab bo'lishgan.

A. Shveyser madaniyat individlarning ham har xil hamjamiyatlarning ham taraqqiyoti hisoblanib, insonlarni ma'naviy yuksaltirishi kerak, - deb ta'kidlagan. D. Bell esa madaniyat – ekspressiv simvolizm va “ifodalilik saltanati” deb aytadi. L.G. Ionin madaniyat – bu insoniyatni hayvonot olamidan ajratib turuvchi asosiy unsur deb izohlaydi<sup>1</sup>.

Mutafakkir olimlarimizdan Abu Ali Ibn Sino madaniyatni insonning ruhiy quvvat oladigan ma'naviy manbai,- deb ta'kidlaydi.

Qarang, haqiqatdan ham madaniyat insonning xulq-atvori shakllanishida, tarbiyasida, ma'naviyatida o'ziga xos axloqiy mexanizm vazifasini o'tashi, insonga xos umuminsoniy, insonparvar g'oyalarni shakllanishiga undov vazifasini bajaradi. Endi ommaviy madaniyat shu funksiyani bajarayaptimi? Yo'q, aksincha, ayrim bir manfur insonlar, kuchlar, oqimlar tezlik bilan moddiy ta'minotga ega bo'lishida insonlar orasida o'zini buzg'unchi g'oyalarini tarqatib insonlarni yomon yo'llarga boshlab ular orasida axloqsizlik, zo'ravonlik, egotsentirizm (xudbinlik), hissizlik, loqaydlik, daxlsizlik, burchsizlik,

---

<sup>1</sup> M.Safarov / “Ommaviy madaniyat” – ma'naviyat kushandasi - <http://www.ziyouz.com>

ma'suliyatsizlik, jinoyatchilik, g'iyohvandlik, millatchilik, hayotga yengil yelpi qarash, maqsadsizlik, ishonchsizlik (o'ziga, boshqalarga, jamiyatga, davlat boshqaruv prinsiplariga), qadriyatsizlik, e'tiqodsizlik kabi illatlarni avj oldirishni uyushtiryaptilar.

Ular OAVlari imkoniyatlaridan o'zlarining g'arazli maqsadlarida foydalanib, ayniqsa yoshlar auditoriyasiga tezlik bilan kirib bormoqdalar. Ushbu buzg'unchi madaniyat ishlab chiqaruvchilari yoshlar orasida buzg'unchi mafkura siyosatini olib borib yoshlarni xulq-atvorida axloqsizlikka, zo'ravonlikka asoslangan quyidagicha targ'ibot ishlarini olib bormoqdalar:

- ***OAV (kino, teatr, radio, internet, ijtimoiy tarmoqlar, reklama, aloqa mobillari)tamoyili:*** - har qanday kinoda nimagadir chaqiriq yoki biron bir g'oya, mafkuraga da'vat mavjud bo'lib insonlarni qandaydir faoliyatga yo'naltiradi hamda o'z ortidan ergashtiradi. Demak, biz yuqorida filmlarda ochiq va yopiq mafkuraviy tahdidlarni mavjudligi-yu ular nimani madh etishi, insonlar xulq-atvorida axloqsizlikka, zo'ravonlikka asoslangan xulq modellarini shakllantirilishini tahlil qildik.
- ***Shaxvoniy his-tuyg'ular targ'iboti-*** bunda asosan erkin muhabbatni targ'ib etuvchi pornografiya orqali haqiqiy, sof tuyg'ular obro'sizlantirilib, uning o'rniga seks deviatsiyani: Fast Love (oniy qo'shilish), arafiliya (buzuqlik), gomeseksualizm kabi ko'ngil xushlikka mukkasidan berilish va shu sohaga yengil yelpi qarashni da'vat qiladi;
- ***Yoshlar modasi-*** turli submadaniyatlar elementlari ham bo'lgan, uyatga qo'yuvchi, xijolatga soluvchi modani, umum qabul qilingan libosni buzuvchi "diskoteka uchun modda"ni, uniseks (jinslar o'rtasidagi farqni aks ettirmaydigan uslubdagi kiyimlar), tungi kiyimlar deb behayo ochiq-sochiq kiyimlarni zamonaviy "modaga"yoyib ommalashtirishni ko'zlash;
- ***Diviantlik (xulqiy ozish, to'g'ri yo'ldan ozish, aksentuatsiyalanish jarayoni ) va jinoyat*** -ta'qiqni va umum qabul qilingan xulq-atvor me'yorlarini buzish, ijtimoiy normalarga nisbatan hurmatsiz kayfiyatda bo'lish (o'z joniga qasd, qastdan shikast yetkazish, zo'ravonlik, agressiv

xulqqa ega bo'lish, ochiqdan ochiq jinsiy aloqalarni uyushtirish, jins vakillarini xo'rlash yoki qarama qarshi jins vakillarini inobatga olmasdan bir xil jins vakillari o'rtasidagi intim munosabatlarni avj oldirish) kabi salbiy illatlarni targ'ib qilish;

- ***Virtual olamni kuchaytirish tamoyili*** -real hayot bilan virtual hayot o'rtasidagi kurashlar insonlar psixikasida juda kuchli emotsional zo'riqishni yuzaga keltirib psixologik muvozanatning buzilishiga erishiladi.
- ***E'tiqodsizlikni avj oldirish tamoyil*** - Bu tamoyilda insonlarda ishonchsizlik, maqsadsizlik, xudbinlik, axloqsizlik, zo'ravonlik, hukumronlik kabi jihatlar madh qilinib insonlar shu illatlarga undaladi.
- ***Avlodlar o'rtasidagi aloqani uzish tamoyili:*** - Barcha davrlarda barcha mamlakatlardagi ijtimoiy siyosat doimo bolalarning ota-onalardan ajratib qo'yilishga qarshi kurashgan edi, chunki bu aloqa davlat bilan fuqarolik jamiyati barqarorligini asosidir. "Ommaviy madaniyat" esa ko'pincha o'smir bilan uning ota-onasining bir-biriga qarshi qo'yadi, bu bilan o'smirlikda muqarrar yuz beradigan psixologik xususiyatlardan foydalanib ularni qo'llab quvvatlaydi va kattalar qadrlaydigan qadriyatlar eskilik sarqitiga yoyilib o'smirlarga yot buzg'unchi g'oyalarga to'la qadriyatlar madh qilinadi.

Xulosa shuki, biz tadqiq qilayotgan ommaviy madaniyatning salbiy illatlari har doim ham yaqqol namoyon bo'lavermaydi. Ammo mayda-chuyda iker-chikirlar bo'lib ko'ringan masalalar kelajak avlod tarbiyasida chuqur salbiy iz qoldirishi mumkin. Bu borada asosiy e'tibor milliy qadriyatlarni avaylab asrash hamda yosh avlodni ajdodlar namunasi asosida tarbiyalash ekanligi bugungi kun haqiqatidir.

Bugun barchamizni jiddiy xavotirga solayotgan global muammolar talaygina. Ekologik, ijtimoiy, iqtisodiy, terrorizm va transmilliy jinoyatlarga qarshi kurashish jahon hamjamiyatini yanada uyg'oq va ziyraklik bilan ish yuritishga undamoqda. Ayniqsa global muammolardan hisoblanmish

mafkuraviy xurujlar, "ommaviy madaniyat" inson ruhiyatiga, uning ma'naviyatiga salbiy ta'sir o'tkazishi bilan g'oyatda xatarlidir. Shuni ham aytish joizki, ushbu muammolarni keltirib chiqarayotgan moddiy va ma'naviy zararlar miqdorini o'lchash mumkin, ammo mafkuraviy xurujlar, "ommaviy madaniyat"ning jamiyatga yetkazayotgan ziyonini o'lchab bo'larmikan...

Albatta, G'arb fan-texnikasi, madaniyati, adabiyotiyu san'atining ilg'or jihatlarini hech kim inkor etmaydi. Biroq yevropalik taraqqiyparvar ziyolilarning o'zi "g'arbning muammosi" sifatida baholayotgan "ommaviy madaniyat"ning ma'naviy-axloqiy tubanliklarini bizning yoshlar qancha tez anglasa, shuncha yaxshi. Yurtboshimizning "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida bu haqda shunday deyiladi: "Hozirgi vaqtda axloqsizlikni madaniyat deb bilish va aksincha, asl ma'naviy qadriyatlarni mensimasdan, eskilik sarqiti, deb qarash bilan bog'liq holatlar bugungi taraqqiyotga, inson hayoti, oila muqaddasligi va yoshlar tarbiyasiga katta xavf solmoqda va ko'pchilik butun jahonda bamisoli balo-qazodek tarqalib borayotgan bunday xurujlarga qarshi kurashish naqadar muhim ekanini anglab olmoqda".

To'g'ri, biz demokratiya davrida yashayapmiz. Jamiyatimizda qiziqish va mayllarga hurmat bilan qaraladi. Ammo xatarli qiziqish va mayllardan davlat hamda jamiyat o'zini himoya qilishi lozim. Buning uchun esa eng avvalo reklama va ommaviy axborot vositalari to'g'risidagi qonunlar talablari qat'iy bajarilishi kerak. Bu borada birinchi navbatda reklama buyurtmachilari, ommaviy axborot vositalari davlatimiz va jamiyatimiz xavfsizligiga putur yetkazmasligi, yoshlarimiz ma'naviy dunyosiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan holatlarga yo'l qo'ymasligi lozim. Ammo, afsuski, bunday holatlar hamon uchramoqda.

Yurtboshimiz o'z asarida yoshlarni faqat ogohlik va hushyorlikka da'vat etadi. Xususan, davlatimiz rahbari "Biz yurtimizda yangi hayot asoslarini barpo etar ekanmiz, bir masalaga alohida e'tibor berishimiz lozim. YA'ni kommunistik mafkura va uning axloq normalaridan voz kechilganidan so'ng jamiyatda paydo bo'lgan g'oyaviy bo'shliqdan foydalanib, chetdan biz uchun

mutlaqo yot bo‘lgan, ma’naviy va axloqiy tubanlik illatlarini o‘z ichiga olgan "ommaviy madaniyat" yopirilib kirib kelishi mumkinligini unutmazlik kerak"<sup>1</sup>, deya ta’kidlaydi.

Shu o‘rinda "ommaviy madaniyat" iborasi ma’nolarini bugungi zamon sharoitidan kelib chiqib, ancha keng miqyosda tushunishimiz lozim. Ogohlik ayniqsa yoshlarimiz ruhiyatini, aql-idrokini, umuman ma’naviyatini diniy aqidaparastlik, jaholatparastlik xatarlaridan asrashdan tashqari, ayni paytda jahonda yuz berayotgan siyosiy, mafkuraviy, ijtimoiy, iqtisodiy, ma’naviy va estetik manfaatlar yo‘nalishidagi oshkora va xufiya kurashlar xataridan, shu jumladan "ommaviy madaniyat"ning yemiruvchi ta’siridan muhofaza qilish demakdir. "Ommaviy madaniyat" iborasi G‘arb dunyosida o‘tgan asrning ikkinchi yarmida shakllangan. G‘arbda "populyar" yoki qisqartirilgan holda "pop-kultura" deb ataladi. Garchi "madaniyat" deyilsada, aslida tub mazmun-ma’nosi, maqsad-niyatiga ko‘ra, "pop-art"chilar insonni emas, aksincha, narsalar va buyumlarni, ma’naviy dunyoni emas, balki maishiy-iste’molchilik his-tuyg‘ularini qadrlaydi va ularni keng ommalashtirishga intiladi. Darhaqiqat, kimki "ommaviy madaniyat" ortidan ergashsa, o‘zining ijodiy qobiliyatidan yiroqlashadi va tayyor madaniy mahsulotlar "iste’molchisi"ga aylanadi. O‘z-o‘zidan ravshanki, "ommaviy madaniyat" asosan hayotiy tajribasi kam yoshlarni ohanrabodek o‘ziga tortadi.

Bu borada mamlakatimiz Prezidentining jamiyat hayotida ezgu qadriyat va an’analarni chuqur qaror toptirishga, xususan, xalqimiz, ayniqsa, yosh avlodning ma’naviy-intellektual salohiyati, ongu tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirishda, ona Vatani va xalqiga muhabbat va sadoqat tuyg‘usi bilan yashaydigan barkamol shaxsni tarbiyalashda beqiyos ahamiyatga ega bo‘lgan kitobxonlik madaniyatini oshirishga alohida e’tibor qaratish maqsadida “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va

---

<sup>1</sup> SH.Mirziyoyev. «Bugun ma’rifatga e’tibor qaratish har qachongidan ham muhimdir».- <https://www.gazeta.uz/uz/2016/10/19/>

kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risi”da qaror qabul qildi<sup>1</sup>.

Ommaviy madaniyat insonlarning madaniy va estetik talablari saviyasini pasaytiradi. Ijtimoiy munosabatlarda insoniylik tamoyilini buzadi.

Ommaviy madaniyat xalqning eng katta boyligi bo‘lgan yoshlarni o‘ziga qaratib, ularni ma’naviy va madaniy qarashlarini mensimaslikka undaydi. Bundan tashqari yoshlarni yengil hayotga chaqirib, mas’uliyatsiz ruhda voyaga yetishiga sababchi bo‘ladi. Xususan, ommaviy madaniyat yoshlar ongida teleserial yoki videofilmdagi bosh qahramonlarning ichishi, chekishi, mushtumzo‘rligi, axloqiy meyorlarni mensimasligi bilan o‘ta salbiy ta’sir o‘tkazadi.

Ommaviy madaniyatni targ‘ib qilayotganlar hayotga bir marta kelasan bu hayotda xohlaganingcha yasha, qiyinchiliklarga qo‘l silta, biz bilan bo‘l, baxtli bo‘lasan deb da’vat qiladiyu, ular hayotda barcha ishlarni qilish mumkin, imkon topsang bas deb uqtirishadi. Albatta insonning nafsiga yengillik, xohlagan ishini qilish yoqadi. Ko‘plab yoshlarni ommaviy madaniyatga ergashib ketayotganining sababi ham shunda.

Har zamonda buzuqlikni, faxshni, bexayolikni har xil nomlar, yaltiroq shiorlar bilan oqlashga intiladigan, targ‘ib qiladigan axloqsiz toifalar chiqib turgan. Bunday buzuqliklarni Islom dini doimo qoralab kelgan.

Dinimiz insoniyat hayotiga tahdid qiladigan barcha ishlarni harom qilgan. Nafs bir ishga ruju’ qo‘ysa, chegara bilmaydi. Shuning uchun ham Alloh taolo bandalariga shariatni yuborib, nafsni jilovlashni buyurgan va unga ba’zi ishlarda chegarani belgilab qo‘ygan. Agar inson ushbu chegaralardan o‘tib ketadigan bo‘lsa, o‘zi uchun zulm qilgan bo‘ladi va Alloh taologa osiy bo‘ladi. Ommaviy madaniyat insonlarni o‘sha chegaralarni buzib o‘tishga undaydi. Harom ishlarni kishilarga go‘zal qilib ko‘rsatadi. Alloh taolo buzuqlik va fahsh ishlardan qaytarib Qur’oni karimda bunday marhamat qiladi:

“..Ayt (Ey Muhammad) albatta Robbim oshkora va yashirin fahsh ishlarni harom qildi..” (A’rof surasi 34-oyat)

Alloh taolo jamiyatni buzilishiga olib keladigan zinoni va unga olib boruvchi barcha narsalarni harom qilgandır. Bu holat haqida “Isro” surasida shunday deb aytgan: “..Zinoga yaqinlashmang..” Oyati karimaga e’tibor bersak, Alloh taolo zino qilmang demadi, balki zinoga yaqinlashmang dedi. Bu buyruq zinoga olib boradigan barcha ishlar ham harom ekanligini ko’rsatadi.

Demak, ommaviy madaniyat kabi buzuqlikni targ’ib qilayotgan tahdidlardan chetda bo’lish har bir musulmon kishining zimmasidagi vazifa ekan. Payg’ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallam: “..Hayo iymondan bir juzdir”, – dedilar. Dinimiz hayoni iymon darajasiga ko’targan bir o’rinda, barcha mo’min kishilar ommaviy madaniyat kabi axloqsizliklardan chetda bo’lishi, farzandlari, do’st-u birodarlarini ham bu ishlardan ogohlantirishi lozim bo’ladi.

Mamlakatimiz rahbari ta’kidlaganidek, muhim ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga ega bo’lgan ushbu muammoni keng miqyosda, dunyoning barcha mamlakatlari va xalqlari hayotiga daxldor masala sifatida o’rganish, tahlil qilish va baholash maqsadga muvofiqdir.

“Dunyo shiddat bilan o’zgarib, barqarorlik va xalqlarning mustahkam rivojlanishiga raxna soladigan turli yangi tahdid va xavflar paydo bo’layotgan bugungi kunda ma’naviyat va ma’rifatga, axloqiy tarbiya, yoshlarning bilim olish, kamolga yetishga intilishiga e’tibor qaratish har qachongidan ham muhimdir. Aynan ta’lim va ma’rifat bashariyat farovonligining asosiy omillaridan hisoblanadi, insonlarni ezgulikka da’vat etadi, saxovatli, sabr-qanoatli bo’lishga undaydi »<sup>1</sup> deb ta’kidlaydi SH.Mirziyoyev .

Milliy qadriyatlarimizni asliga keltirish va rivojlantirishda xalqimizning ko’p asrlik an’analari, madaniyati, urf-odatlari, har xil bayramlari, boy qadimiy merosi o’zining alohida o’rni va ahamiyatiga ega. Madaniy-ma’naviy merosimiz, asriy an’analar-o’tmishdan, avlod-ajdodlarimizdan bizlarga yetib kelgan, bugungi hayotimiz uchun xizmat qilayotgan eng katta ma’naviy boylik, buyuk

---

<sup>1</sup> SH.Mirziyoyev «Bugun ma’rifayga e’tibor qaratish har qachongidan ham muhimdir».-  
<https://www.gazeta.uz/uz/2016/10/19/>



xazinadir. Bu xazina insonga hayotda baqarorlik bag`ishlaydi, uning qarashlari shunchaki boylik orttirish yo`lida kun ko`rishga yo`l qo`ymaydi, fojialar vaqtida omon saqlab qoladi va moddiy qiyinchilik kunlarida irodani mustahkamlaydi.

Xar bir xalqning o`zi uchun e`zozli, qimmatli bo`lgan ma`naviy boyliklari bo`ladi. Bular asrlar davomida avloddan avlodga o`tib kelgan, hozirgi kunda ham o`zining ahamiyati va Qadrini yo`qotmagan, shu xalqning *iftixor manbaiga* aylangan durdonalardir. Masalan, qirg`iz xalqi «Manas» dostoni bilan, misrliklar qadimiy piramidalar, fransuzlar Parijdagi Luvr saroyi, o`zbeklar Samarqandu Buxoro va Xiva bilan haqli ravishda faxrlanadilar.

Millat va elatlarning o`ziga xos tarixiy merosi, san`ati va adabiyoti bilan bir qatorda ularning urf-odat va marosimlari, madaniy munosabat va axloqiy fazilatlari ham ma`naviy qadriyatlar tizimiga kiradi. Bular xalqning o`ziga xosligini saqlab qolishda, yosh avlodni tarbiyalashda, shaxsning ijtimoiylashuvida muhim rol o`ynaydi.

Milliy ma`naviy qadriyatlarda xalqning dunyoqarashi va hayotga munosabati, ichki tabiati va turmush tarzi o`z ifodasini topadi. Bularda millatning ruhiy olami va tafakkur tarzi, orzu-umidlari va ideallari, vijdoni va or-nomusi aks etadi.

Milliy qadriyatlar xalqning kundalik hayoti va turmush tarzida o`ziga xos mezon vazifasini o`taydi. Ushbu qadriyatlar vositasida turli hodisa va holatlarga, yangi paydo bo`layotgan faoliyat turlari va rasm-rusumlarga baho beriladi. Yosh avlodning hayotiy mo`ljallari, «zamona qahramoni» haqidagi tasavvurlari ham ma`naviy qadriyatlardan kelib chiqib shakllanadi.

Milliy ma`naviy qadriyatlar ijobiy axloqiy sifatlarni takomillashtirish, davlat va millat rivojiga to`g`anoq bo`ladigan salbiy illatlarni bartaraf etish omilidir.

Estetik madaniyat va ma`naviy qadriyatlar orasida uzviy aloqadorlik, o`zaro ta`sir mavjud bo`lib, bu quyidagilarda o`z ifodasini topadi:

*birinchidan*, milliy qadriyatlar estetik madaniyat uchun ma`naviy negiz, manba bo`lib xizmat qiladi;

*ikkinchidan*, Estetik madaniyat qadriyatlarini boyitish, yanada yuksak bosqichga ko'tarish, odamlar ongi va qalbiga milliy qadriyatlarini singdirish omili bo'lib hisoblanadi;

*uchinchidan*, Estetik madaniyat xalqning tub manfaatlari nuqtai nazaridan mavjud ma'naviy qadriyatlarga baho beradi, ijobiy jihatlarni rivojlantirish, salbiy holatlarni inkor etishning ma'naviy mezoni bo'lib maydonga chiqadi.

Ma'naviyat, milliy qadriyatlar va estetik madaniyat alohida olingan har bir shaxs hayotida ham, jamiyatdagi turli guruh va qatlamlar faoliyatida ham, umuman insoniyat taraqqiyotida ham katta ahamiyatga ega. Millat va davlat taraqqiyotining ma'lum davrlarida estetik madaniyat eng dolzarb, hal qiluvchi omil bo'lib maydonga chiqadi.

Binobarin, estetik madaniyat - xalqning bugungi hayoti uchun ham ertangi istiqboli uchun beqiyos ahamiyatga ega .

Milliy o'zlikni anglash aynan ma'naviy qadriyatlarini o'zlashtirish, o'z xalqining tarixi, madaniy merosini o'rganish, bugungi holati va ertangi istiqbolini aniq tasavvur etishdan boshlanadi. Har bir insonning faoliyati, hayotiy maqsadlari ma'lum bir qadriyatlarga erishish, moddiy va ma'naviy boyliklarga ega bo'lishga yo'naltirilgan bo'ladi.

Milliy ma'naviy qadriyatlar ko'p asrlik tarixga ega. O'zbekistondagi tarixiy obidalar, madaniy yodgorliklariyu urf-odat va marosimlarni tahlil qilish, bularning paydo bo'lishi juda qadim zamonlarga borib taqalishini ko'rsatadi.

Misol uchun, «Avesto»ni olaylik. Bundan 2500 yil muqaddam o'n ikki ming mol terisiga oltin harflar bilan bitilgan bu asar paydo bo'lishi uchun undan avval ham kamida necha ming yillik davr o'tganligi, teran hayotiy tajriba va hikmatlar to'planganligi, shubhasiz. Bu asar yuksak madaniy hayot, falsafa va fan, xattotlik va mushtariylik rivojlanishi natijasida yaratilganligi uchun ham shu paytgacha o'z qimmatini yo'qotmadi.

Davrlar o'tishi bilan milliy ma'naviy qadriyatlar ham o'zgarib, rivojlanib, yangilanib, boyib boradi. Zamon ruhiga va taraqqiyot talablariga mos kelmay qolgan me'yor va talablar inkor etiladi. Yangicha tasavvur va yondashuvlar,

fazilat va odatlar hayotga kirib keladi. Bunga kundalik hayotimizdan, turmush tarzi, kiyinish, ovqatlanish, to'y-xashamlarni o'tkazish va boshqalardan ko'plab misollar keltirish mumkin.

XXI asr boshiga kelib axborot texnologiyalari tufayli globallashuv jarayoni yangi bosqichga ko'tarildi. Bu sharoitda milliy qadriyatlarga chetdan bo'ladigan ta'sir beqiyos darajada zo'raydi. Bu ta'sir, bir tomondan, milliy madaniyatning boyishi, qadriyatlarning qayta baholanishi va yuksalishiga, ikkinchi tomondan esa, millatning ruhiyati va qadriyatiga yot bo'lgan odat va harakatlarning kirib kelishiga sabab bo'ldi.

Bir tuzumdan boshqasiga o'tish davrida aholining ruhiyati va qadriyatlarida jiddiy o'zgarishlar sodir bo'ladi. O'z umrini yashab bo'lgan g'oyalar, zamonga mos kelmaydigan munosabat va fazilatlar o'rnini yangilari bilan to'ldirish osonlikcha kechmaydi. Shularni hisobga olib, aytish mumkinki, milliy o'zlikni saqlash, tarixiy xotirani tiklash, kelajakka komil ishonch hissini uyg'otish uchun ma'naviyat, milliy ma'naviy qadriyatlar beqiyos ahamiyatga ega.

Milliy ma'naviy meros va qadriyatlar tarkibi quyidagilardan iborat:

- ◆ tarixiy meros va tarixiy xotira;
- ◆ madaniy yodgorliklar, osori-atiqalar, qadimiy qo'lyozmalar;
- ◆ ilm-fan yutuqlari va falsafiy tafakkur durdonalari;
- ◆ san'at va milliy adabiyot;
- ◆ axloqiy fazilatlar;
- ◆ diniy qadriyatlar;
- ◆ urf-odat, an'ana va marosimlar;
- ◆ ma'rifat, ta'lim tarbiya va hokazolar.

Milliy ma'naviy qadriyatlar tizimida *tarixiy meros* va *tarixiy xotira* muhim o'rin tutadi. Estetik didni yuksaltirish va xalqning ruhini ko'tarishda tarixiy meros hamda tarixiy xotiraning juda katta ahamiyati bor. Tarixni haqqoniy o'rganish, undan saboqlar chiqarish lozim.

O'zbek xalqi jahon madaniyati hazinasiga munosib hissa qo'shgan millatlar qatoridan faxrli o'rinni egallaydi. *Madaniy yodgorliklar, me'morchilik san'ati namunalari, qadimiy qo'lyozmalar* - milliy ma'naviyatning bebahodurdonalari, xalqimiz uchun eng qadri va muqaddas bo'lgan boyliklardir. Bularni avaylab asrash, kelajak avlodlarga yetkazish ma'naviyat sohasidagi eng dolzarb vazifadir.

*Ilm-fan va uning yutuqlari* - milliy yoki hududiy chegaradan chiqadigan, butun jahon e'tirof etadigan, umuminsoniyatga xizmat qiladigan boylikdir. Biroq olimning ijodi va uning ilmiy kashfiyoti, avvalo, uning millati va Vatanini dunyoga tanitadi, milliy qadriyatni jami bashariyatning yutushga aylantiradi.

Milliylik xalqning ruhiyati va ma'naviyati, ayniqsa, *san'at va adabiyot* rivojida yorqin ifodalanadi. Ezgulik va poklikni, insoniylik va haqqoniylikni kuylagan buyuk asarlar, qaysi janrda yoki qaysi tilda yaratilganidan qat'iy nazar, jahonga taniladi, pirovardida yana shu millatning xalqaro nufuzini yuksaltiradi.

Milliy ma'naviy qadriyatlar tizimida *axloqiy sifat, diniy qadriyatlar* munosib o'rin egallaydi va milliy o'zlikni anglashning muhim sharti, omili sifatida namoyon bo'ladi. Axloqiy va diniy qadriyatlar aksari hollarda o'zaro bog'liq bo'lib, jamiyatning ma'naviy yuksalishida, yosh avlod tarbiyasida birdek muhim ahamiyatga ega.

Har bir xalq, millat yaratgan ma'naviy qadriyatlar, uning dunyoga qarashi va hayotga munosabati, o'ziga xos betakror xususiyatlari, ayniqsa, *urf-odat va marosimlarda* to'laqonli namoyon bo'ladi. Marosimchilik bir qator ijtimoiy funksiyalarni bajaradi, milliy o'zlikni saqlashda, yoshlarni tarbiyalashda, muayyan soyalarni ruhiyatga singdirishda katta ahamiyat kasb etadi.

*Tarbiya va ta'limning milliy xususiyatlari* ham ma'naviy qadriyatlar tizimida o'z o'rniga ega. Xalqning kelajagi yoshlarga bog'liq ekanligi qanchalik haqiqat bo'lsa, bularni milliy ruhni tarbiyalash zarurati ham umume'tirof etilgandir. Milliy tarbiya xalqning o'z-o'zini saqlash va istiqbolini ta'minlash omilidir.

Milliy qadriyatlar - millat tafakkurining mahsuli, ijtimoiy ongning yuqori darajadagi shakli, xalq falsafasining o'zagidir.

Turli xalqlarning milliy g'oya ularning maqsad muddaolarini, orzu-umidi va ishonch-e'tiqodini ifodalaydi, ayni paytda, muayyan tamoyil va negizlarga asoslanib rivojlanadi. Tarix saboqlari guvohlik berishicha, o'tkinchi manfaat va g'araz niyatlarga tayangan, o'zga xalqlar va yurtlarga tajovuz qilishni, bosqinchilikni ko'zlagan yovuz g'oya va mafkuralar millat va davlatlarni tanazzulga duchor etgan. Faqat ezgu g'oyalar va yuksak qadriyatlar negizida shakllangan milliy g'oyalar xalqlarni taraqqiyotga eltgan.

O'zbekiston xalqi umuminsoniy va milliy qadriyatlarga tayanadi, bularning biri ikkinchisini inkor etmaydi.

- ◆ xalqimiz hayotida qadim-qadimdan jamoa bo'lib yashash ruhining ustunligi;
- ◆ jamoa timsoli bo'lgan oila, mahalla, el-yurt tushunchalarining muqaddasligi;
- ◆ otaona, mahalla-ko'y, umuman, jamoatga yuksak hurmat e'tibor;
- ◆ ona tiliga muhabbat;
- ◆ kattaga -hurmat, kichikka - izzat;
- ◆ mehr-muhabbat, go'zallik va nafosat, hayot abadiyligining ramzi - ayol
- ◆ zotiga ehtirom;
- ◆ sabrbardosh va mehnatsevarlik;
- ◆ halollik, mehroqibat va hokazo .

O'zbek milliy qadriyatlari inson va millat hayotining barcha jabhalarida namoyon bo'ladi. Milliy tabiatimizga xos bo'lgan mehr-oqibat, muruvvat, andisha, or-nomus, sharmuhayo, ibo-iffat kabi betakror fazilatlar, xalqimizni ko'p jihatdan ajratib turadigan bag'rikenglik mehmondo'stlik oqko'ngillilik xususiyatlarini tavsiflash orqali ularni butun qadriyat darajasida o'ringa ega ekanligani ta'kidlash lozim.

Insoniyatning ko'p ming yillik tarixi mobaynida oila, oilaviy munosabatlar juda katta taraqqiyot yo'lini bosib o'tdi. Turli davrlar bularga o'z

ta'sirini o'tkazdi. Mohiyati bir bo'lsada, turli xalqlarda oilaviy munosabatlar turli xil shakllarda namoyon bo'ldi.

O'zbek oilalarida uch to'rt, hatto besh avlod vakillari (ya'ni, bobo-buvilar, ota-onalar, farzandlar, nevaralar va chevaralar) o'zaro ahillikda, bahamjihat umr kechiradilar.

Har bir bo'ginning o'z burchi va mas'uliyati, o'z erki va mavqeyi bor.

*Oila* - muqaddas. Oila qurish - o'ta mas'uliyatli ishdir. «Oila eskilik unsuri emas». U muqaddas, oilada millat kelajagi mujassam. Yoshlarni tarbiyalash, kamolotga yetkazish, ilm hunar berish, uyli joyli qilish - aksariyat oilalarning eng oliy maqsadidir. O'zbekning hayotdan ko'zlagan asl muddaosi - bolachaqli bo'lish, bularning to'yini, orzu havasini ko'rish. Yosh avlodni hayotga yo'llantirish, bular uchun muayyan boshlang'ich nuqta - start pozitsiyasi yaratib berishga nisbatan munosabat turli millatlarda turlichadir. Ayrim xalqlar mentalitetida farzandlar voyaga yetgach, oilasi, ota-onasini tashlab, faqat o'z kuchi bilan mustaqil oyoqqa turish uchun uyini tark etadi. O'zi ham oila qurib, farzand ko'rib, uni katta qilganda -u ham avlodlar vorisligiga chek qo'yib, oilasini tark etadi.

O'zbeklarda yoshlar uchun juda yuqori start pozitsiyasi yaratib, hayotga yo'llanadi. Uylanayotgan yigitga kamida 12 xonali uy, turmushga chiqayotgan qizga mebel jihozlari va uy anjomlari taqdim etiladi. Ikki yosh farzandli bo'lgach, o'z navbatida, estafetani qabul qilib, keyingi avlodni hayotga tayyorlay boshlaydi. Ushbu milliy qadriyat oilaviy munosabatlarda ham vujudga kelishi mumkin bo'lgan begonalashuv jarayonini bartaraf etadi, avlodlar vorisligi uchun zamin yaratadi. Ayni paytda, bu qadriyat, yoshlardagi boqimandalik begamlilik o'z hayoti uchun mas'uliyatni faqat kattalarga topshirib qo'yish kabi illatlarni inkor etadi, o'z kelajagani o'z qo'li bilan yaratishga ishtiyoqni ragbatlantiradi. Ahil oilalarda aksariyat masalalar o'zaro fikr almashuv, maslahat va kengash orqali hal etiladi. Er-xotin, qaynona-kelin, aka-ukalar orasida sodir bo'ladigan ba'zi ixtiloflar mahalla va qarindosh urug'lar vositachiligada bartaraf etiladi.

*Mahalla* o'z-o'zini boshqarishning o'zbek xalqi yaratgan eng katta yutug'i, oqilona shaklidir. Mahalla - tarbiya maskani, har bir oilaga tayanch va suyanch ekanligi ko'pchilikka ayon. O'zbek xalqining hayoti, kundalik turmush, qadriyatlari bilan tanishgan holis fikrli xorijliklar mahallani noyob qadriyat, buyuk kashfiyot sifatida e'tirof etmoqdalar.

*Qo'ni- qo'shnichilik munosabatlari* uzoq tarixga ega bo'lib, asrlar davomida bu borada muayyan qadriyatlar shakllangan. Jahon tarixining oxirgi bir necha asrida hukmron bo'lgan begonalashuv jarayoni bu sohaga ham o'z ta'sirini o'tkazgan. Ayrim yerlarda qo'shnilarga mutlaqo befarqlik yuzaga kelgan. Bunday holatning oldini olish muhim.

O'zbek xalqining qadriyatlari tizimida qo'shnilarga munosabat katta o'rin egallaydi. Xalq yaratgan maqol va matallar (mas, «Yon qo'shnim - jon qo'shnim», «Uzoqdagi qarindoshdan yaqindagi qo'shni afzal», «Hovli olma - qo'shni ol» va h.) uning bu masalada o'ziga xos falsafasi borligidan dalolat beradi.

Yaxshi qo'shnichilik munosabatlari buzilgan, arziyas sabab bilan qo'shnilar yuz ko'rmas bo'lgan hollarda qanchalar teran milliy qadriyat oyoq osti bo'lganligi, bag'rikenglik va murosa tamoyili lat yeganligi ayon bo'ladi.

*Keksalarga xurmat* inson hayotiy tajribasi davomida shakllangan qadriyat. Jonli tabiatda hayot uchun kurash qonuniyati mavjud. Nasl qoldirish, yangi avlodga mehr qo'yish, uni oyoqqa turg'azguncha jon fido qilish hollari aksariyat hayvonlarda kuzatiladi. Ammo, qariyalarni e'zozlash, keksalarga ehtirom, mehr-muruvvat ko'rsatish - insoniy fazilatdir. Bularsiz milliyligimizni tasavvur eta olmaymiz.

Kattalarni hurmat qilishdek milliy qadriyat, ba'zan yoshi va ilmi ulug'lar qolib, mansabi yuqorilarga qulluq qilish kabi salbiy holatlarni e'tirof etmaydi. Ayni paytda, xalq tomonidan ko'rsatiladigan yuksak ehtirom keksalarga ham katta mas'uliyat yuklaydi.

*Ayol zotiga extirom* - insoniyatning yarmidan ko'pini tashkil etadigan xotin-qizlarga bo'lgan munosabatning asrlar davomida avloddan avlodga o'tib kelgan.

Har bir xalq millat va xalq sifatida taraqqiiy etar ekan, o'z kelajagini o'zining milliy va diniy qadriyatlari asosida qurmog'i kerak. SHundagina u bu dunyoda millat va xalq sifatida abadiy qoladi.

Xulosa qiladigan bo'lsak, bugungi globallashuv davrida inson hamisha ogoh va sergak bo'lishi lozim. Unib kelayotgan yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ularni yurtga sadoqat va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashni ham har birimiz oliy maqsad deb bilishimiz muhimdir. Milliy ma'naviy qadriyatlar jamiyatimizning ma'naviy zamini,shu bilan birga estetik ongning negizi bo'lib xizmat qilmoqda.



## XULOSA

Globalashuv davrida yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ularni yurtga sadoqat va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashni ham, har birimiz oliy maqsad deb bilish muhim vazifadir. Milliy ma'naviy qadriyatlar jamiyatimizning ma'naviy zamini,shu bilan birga estetik ongning negizi bo'lib xizmat qilmog'i lozim.

SHunday qilib, yuqoridagi fikrlarimizdan quyidagicha xulosa qilish mumkin;

1. Estetik tarbiya shaxs o'zligi, uning estetik didi shakllanishiga katta ta'sir o'tkazadi. Estetik didda inson aqliy va hissiy dunyosi, orzu umidlari, talab ehtiyojlari, maqsad manfaatlari ro'yobga chiqadi. Did faqat kayfiyat, baholarigina emas, balki inson faoliyati samarali vositasida ham ifoda topadi. Inson faoliyatining barcha samaralarida uning didi aks etadi.
2. Ma'naviy muhit yaxshi bo'lsa. Ta'lim va tarbiya, jumladan estetik didni tarbiyalash samarali kechadi. Ma'naviy qiyofa insonning insoniyligi, uning qalbi va vijdonining uyg'oqligini anglatuvchi ijobiy, insoniy fazilatlar, xislatlar yig'indisi bo'lib, insonning insonga, insonning tabiatga, insonning jamiyatga, insonning - o'zi yashayotgan ijtimoiy tuzumga, o'sha jamiyatda mavjud bo'lgan qonun, huquq, axloq normalariga, milliy g'oya va mafkura tamoyillariga bo'lgan munosabatlarining namoyon bo'lishidir.
3. Estetik kamolot ma'naviy hayotning eng nozik, shu bilan birga murakkab ko'rinishlaridan biri hisoblanadi. Inson shaxsiyatida estetik didning shaklanishi asta-sekinlik bilan davom etadigan jarayon hisoblanadi. Estetik ko'nikmalar inson vujudiga singib, uning e'tiqodiga aylana borishi zarurdir. E'tiqodga aylanmagan ko'nikmalar beqaror bo'lib turadi, arzimas turtki bilan keskin o'zgarib ketadi.
4. Did estetik anglashning eng muhim unsuridir. Shu nuqtai nazardan estetik did tarbiyasi inson kamolotida muhim o'rin tutadi. Did shunchaki baho emas, narsa-hodisa estetik xususiyatlarini chuqur idrok etish orqali yuzaga keladigan xulosadir. Ammo did yagona, mutlaq estetik hodisa emas, u

muayyan nisbiylik tabiatiga ega. Estetik did har kimda har xil bo'lib, unda sub'yektiv mushohada kuchli.

5. Estetik did ta'lim-tarbiya maskanlari bilan birga san'at vositasida takomillashib boradi. Ayniqsa san'at doim estetik tarbiyaning asosiy vositasi bo'lgan. Aynan badiiy adabiyot estetik did tarbiyasida o'ziga xos xususiyatlarga egadir.
6. «Ommaviy madaniyat» tushunchasi biz uchun yangi tushuncha hisoblanadi. Biroq u g'arb olami uchun ancha tanishdir. O'zbekistonda bu muammoga jamoatchilik e'tiborini ilk bor birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov qaratib, quyidagi fikrlarni bildirgan edi: «Biz yurtimizda yangi hayot asoslarini barpo etar ekanmiz, bir masalaga alohida e'tibor berishimiz lozim... Chetdan biz uchun mutlaqo yot bo'lgan, ma'naviy va axloqiy tubanlik illatlarini o'z ichiga olgan «ommaviy madaniyat yopirilib kirib kelishi mumkinligini unutmash kerak».
7. «Ommaviy madaniyat» ko'pdan-ko'p shakllarda o'zini namoyon etadi.  
Kitch (zarracha badiiy-estetik qimmatga ega bo'lmagan narsa va buyumlarga yuksak andoza tusini berish),  
komiks (tagiga qisqa matn yoki luqmalar bitilgan behayo matbaa - rasm mahsulotlari),  
starizm (sub'yektiv ehtirolarga berilgan holda, estrada artistlari, aktyorlar, sportchilar, telediktorlarni ilohiylashtirish),  
xeppining (avvaldan rejalashtirilmagan, nogahonda uyushtiriladigan «keskin» tomoshalar, masalan, royal, pianino yoki avtomobillarni urib abjag'ini chiqarish yoxud o't qo'yish orqali vahshiyona, ommaviy «ko'ngil ochish»lar uyushtirish) «ommaviy madaniyat»ning ayrim ko'rinishlaridir.
8. Insonning estetik kamolatini yuksaltirish orqali ommaviy madaniyatga qarshi kurashishi mumkin. Bunda xalqimiz tomonidan yaratib kelingan san'at va adabiyot, milliy va diniy qadriyatlar muhim o'rin tutadi. Har bir xalq millat va xalq sifatida taraqqiiy etar ekan, o'z kelajagini

o'zining milliy va diniy qadriyatlari asosida qurmog'i kerak. SHundagina u bu dunyoda millat va xalq sifatida abadiy qoladi.

9. Ma'naviy qadriyatlarni o'zlashtirish, o'z xalqining tarixi, madaniy merosini o'rganish, bugungi holati va ertangi istiqbolini aniq tasavvur etishdan boshlanadi. Har bir insonning faoliyati, hayotiy maqsadlari ma'lum bir qadriyatlarga erishish, moddiy va ma'naviy boyliklarga ega bo'lishga yo'naltirilgan bo'ladi.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI

### Normativ hujjatlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – T.: O‘zbekiston, 2018. 79
2. “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risi”dagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. 2017 yil 13 sentabr - lex uz.
3. Milliy g‘oya targ‘iboti va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar samaradorligini oshirish to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. // Xalq so‘zi, 2006 yil, 26 avgust.

### Asosiy adabiyotlar

4. Mirziyoyev.SH.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.- T.: O‘zbekiston, 2016. - 56 b.
5. Mirziyoyev.SH.M. Tanqidiy tahlil, qat‘iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. –T.:O‘zbekiston, 2017–104b.
6. Mirziyoyev.SH.M. Millatlararo do‘stlik va hamjihatlik - xalqimiz tiichligi va farovonligining hayotbaxsh manbai. // Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat‘iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1 jild. – T.:O‘zbekiston, 2017 299 bet
7. Mirziyoyev.SH.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat‘iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1 jild – T. : O‘zbekiston, 2017. -592 b.
8. Mirziyoyev.SH.M. BMT bosh Assambleyasining 72 sessiyasidagi nutqi. - // Xalq so‘zi. 2017 yil 20 sentabr
9. Mirziyoyev.SH.M. «Bugun ma‘rifatga e‘tibor qaratish har qachongidan ham muhimdir». -<https://www.gazeta.uz/uz/2016/10/19/>
10. Karimov.I.A. "Yuksak ma‘naviyat- yengilmas kuch". – T.: Ma‘naviyat, 2008 yil
11. Karimov.I.A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida.-T.; O‘zbekiston 2011.

12. Karimov.I.A. O‘zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo‘lmaydi. 13-jild. – T.: O‘zbekiston, 2005.
13. Karimov.I.A. O‘zbekiston XXI asr bo‘lag‘asida; xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T.: O‘zbekiston, 1997.
14. Karimov.I.A. O‘zbekiston: milliy istiqloq, iqtisod, siyosat, mafkura. 1-jild. – T.: O‘zbekiston, 1996.
15. Abdulla Sher, Bahodir Husanov. Estetika ( uslubiy qo‘llanma ikkinchi nashri ). –T.; O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2010 yil. 94 – bet
16. Voboyev.G’.Hamroyev.V.Alimasov.V. Ma`naviyatshunoslik.- T.;. Yangi avlod. 2001.280-bet
17. Erkayev.A.Ma`naviyat – millat nishoni.- T.; Ma`naviyat, 1997
18. Erkayev.A.Ma`naviyatshunoslik. 1-2 kitob. - T.; Ma`naviyat, 2018
19. Erkayev.A.«Ommaviy madaniyat» tanazzulga yetaklaydi. - 26-09-2015
20. O‘zbekiston: 13 yil mustaqil taraqqiyot yo‘lida.- T.; «O‘qituvchi», 2004, 3-44-betlar.
21. Umarov.E. Karimov.R. va b. “Estetika asoslari” - T.; 2010 y.207 b.
22. Umarov.Z. Estetika" Nafosatshunoslik - T.: O`qituvchi, 2008. 301
23. Karimov.R.va boshqalar. Estetika asoslari. - T.: Cho'lpon,2006 292
24. Choriyev.A. Inson falsafasi. Mustaqil shaxs. -T: Chinor ENK, 2002. 245
25. Imomnazarov.M. Laposov.M, Sobirova.M. Ma`naviyatshunoslik (o`quv qo`llanma) – 2012. 470 b.
26. Mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashning ahamiyati, tajribalari va muammolari. // “Postda” gazetasi, 16 fevral, 2013 yil.
27. Bag‘rikenglik – barqarorlik va taraqqiyot omili. – T.: “Toshkent islom universiteti” nashriyot – matbaa birlashmasi, 2007.
28. Yoshlarni buzg‘unchi g‘oyalardan asrash: muammo va yechimlar. – T.: Zarqalam, 2006.
29. Safarov.M./ “Ommaviy madaniyat” – ma`naviyat kushandasi - <http://www.ziyouz.com>

30. Abidjanova.F. Ruhiiy tiplarning estetik-falsafiiy talqini. "Falsafa va ijtimoiy taraqqiyot" mavzuidagi xalqaro konferensiya materiallari. –T.: O‘zMU, 2008.

#### **Internet saytlari**

1. [www.ma'naviyat.uz](http://www.ma'naviyat.uz)
2. [www.bilim.uz](http://www.bilim.uz).
3. [www.philosophy.ru](http://www.philosophy.ru).
4. <http://www.anthropology.ru>
5. <http://manaviyat-kuzgusi.uz>
6. <http://www.falsafa.dc.uz>.
7. <http://www.lib.ru/FILOSOF>.